आदर्शवादी साहित्य (Utopik adabiyot) bu adabiyotda idealizatsiyalangan jamiyatlarni yaratishni o‘z ichiga oladi, bu yerda ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy tuzilmalar mukammal yoki deyarli mukammal sifatida tasvirlanadi. Ushbu hikoyalar ko‘pincha mukammal jamiyat imkoniyatlarini o‘rganadi va zamonaviy ijtimoiy kamchiliklarni tanqid qiladi. Tomas Morening “Utopiya” (1516) utopik adabiyotning asosiy asarlaridan biri bo‘lib, ideal ijtimoiy, huquqiy va siyosiy tizimga ega xayoliy orol jamiyatini tasvirlaydi. Utopik mavzular XIX va XX asrlarda ham, ko‘pincha industrializatsiya va ijtimoiy o‘zgarishlarga javoban paydo bo‘ldi. Edvard Bellamining “Orqaga Qarayish” (1888) va H.G. Uellsning “Zamonaviy Utopiya” (1905) asarlari kiradi. Hind adabiyotida utopik mavzular G‘arb adabiyotiga qaraganda kamroq tarqalgan, ammo ba’zi yozuvchilar bu g‘oyalarni o‘rgangan. Munshi Premchandning “Xizmat uyi” (“सेवासदन”) romani garchi qat’iy utopik asar bo‘lmasa-da, Premchandning ijtimoiy islohot va idealizm mavzularini o‘rganadi, axloqiy va axloqiy takomillashtirishga intilayotgan jamiyatni tasvirlaydi. Jaishankar Prasad “Kamayani” (“कामायनी”) epik she’ri utopik fikrning elementlarini o‘z ichiga oladi, idealizatsiyalangan o‘tmishning ko‘rinishini taqdim etadi va insonning salohiyati va

ijtimoiy uyg‘unlik mavzularini o‘rganadi. Jaishankar Prasadning Kamayani epik she’ri mifologiya, falsafa va ijtimoiy tanqidni birlashtiradi. U insoniy his-tuyg‘ular va bilim va baxtni izlashni o‘rganadi, ko‘pincha inson jamiyatining idealizatsiyalangan tasavvurlarini aks ettiradi.

У (U)

УТТАРАДҲУНИКТАВАД (Postmodernizm) XX asrning o‘rtalarida rivojlangan, an’anaviy adabiy usullar va tuzilmalarni rad etuvchi, zamonaviylikni qayta ko‘rib chiqishga intiluvchi adabiy harakat hisoblanadi. Postmodernizm modernizmning davomchisi sifatida ko‘pincha unga qarama-qarshi bo‘lgan usullar va tamoyillarni qamrab oladi. Postmodern adabiyot ko‘pincha o‘ziga xos xususiyatlari, uslub jihatlari va mavzu yo‘nalishlari bilan ajralib turadi. Matnning uzluksizligi buzilishi, hikoya qismlarining va xarakterlarning bo‘lak-bo‘lak shaklda ifodalanishi. Bu usul o‘quvchini matnni o‘z xohishiga ko‘ra tushunishga majbur qiladi. Matn o‘zining adabiy asar ekanligini ochiqdan-ochiq tan oladi va bu orqali o‘quvchini matnning haqiqatdan uzoqligini anglatadi. Boshqa matnlarga, madaniy manbalarga va adabiy asarlarga murojaat qilish, iqtibos olish va ularga ishora qilish. Bu usul o‘quvchiga kengroq madaniy va adabiy kontekstda asarni tushunish imkonini beradi. Turli adabiy uslublarni, janrlarni va shakllarni aralashtirish va ulardan foydalanish. Bu usul asarning murakkabligini va ko‘p qirrali ekanligini namoyish etadi. Boshqa asarlarni yoki madaniy voqealarni parodiya qilish va ular orqali ironik ifodalar

yaratadi. Bu usul asarga o‘ziga xos hazil va tanqidiy ko‘rinish beradi. Absolyut haqiqatni va universal qadriyatlarni rad etadi. Postmodern asarlar ko‘pincha haqiqatni nisbiy deb biladi va turli nuqtai nazarlarni keltiradi. Hind adabiyotida postmodernizm turli yozuvchilar va shoirlar tomonidan qabul qilindi va rivojlandi. Ular bu usullar orqali o‘z madaniy va ijtimoiy muhitlarini aks ettirishga intildilar. Jahon adabiyotida argentinalik yozuvchi J.L.Borges ushu yo‘nanish asoschisi sifatida qabul qilingan bo‘lsa, Jon Barth, Tomas Pinchon, Italo Kalvinio, Roland Barthes kabi yozuvchilar ushbu uslubda barakali ijod qilishdi. Hind yozuvchilaridan esa Salman Rushdi o‘zining “Yarim tunda tug‘ilgan bolalar”, Arundhati Royning “Kichik narsalar xudosi”, Vikram Chandra “Muqaddas o‘yinlar”, Amitav Ghosh “Soyali qatorlar”, Kiran Desai “Judolik merosi”, Shashi Tharur “Buyuk hind romani”, Anita Desai “Kunning yorug‘ nurida” hamda Vinod Kumar Shuklaning “Xizmatkor ko‘ylagi” kabi asarlarida bu yo‘nalishning ta’siri sezilib turadi. Vinod Kumar Shuklaning “Xizmatkor ko‘ylagi” nomli romanida uning yaqqol ta’sirini kuzatish mumkin:

कहानी में हमेशा वही सफेद कागज पर टाइप की गई रिपोर्ट होती थी। रिपोर्ट एक छोटी सी त्रुटि की तरह थी, जिसे टाइपिंग में सुधार नहीं किया जा सकता था। कहानी का अंत हमेशा एक छोटी सी दुर्घटना से होता था, जैसे चाय की प्याली का गिरना।

उत्तर-औपनिवेशिकता

yoki

उत्तर-उपनिवेशवाद

(Mustamlakachilikdan keyingi adabiyot). Adabiyotshunoslikda mustamlakachilik davridan keyin shakllangan adabiy oqim bo‘lib,

mustamlaka ostida yashagan xalqlarning tarixiy tajribasi, madaniyati, tili, shaxsiyati va qarshilik ruhini ifoda etishga qaratilgan adabiyot sohasi Mustamlakachilikdan keyingi adabiyot deb ataladi. 1947–1960-yillardan boshlab Hindiston, Afrika, Karib mintaqasi mustaqillikka erishganidan keyin hamda XX asr oxiri – XXI asr boshlarida bu adabiy oqim mustaqil nazariy yondashuvga aylangan. Mustamlakachilik jarayonining insoniyatga, jamiyatga, madaniyatga va tafakkurga ko‘rsatgan ta’sirini o‘rganadigan va aks ettiradigan adabiyot hisoblanadi. Bu adabiyot ko‘pincha mahalliy qarshilik, shaxsiyat inqirozi, til siyosati, va G‘arbga nisbatan tanqidiy nuqtai nazar bilan ajralib turadi. Juhon adabiyotining yorqin vakillari Chinua Achebe (Nigeriya), Ngūgī wa Thiong‘o (Keniya), Salman Rushdie (Hindiston) Arundhati Roy (Hindiston), Jean Rhys (Dominika), Tsitsi Dangarembga (Zimbabwe) ushbu adabiyot ta’sirida asarlar yaratishgan. Edward Said, Homi K. Bhabha, Gayatri Spivak kabi olimlar ushbu adabiyotni tadqiq qilishgan. Hind adabiyotida Britaniya mustamlakachiligi ta’siri, shaxsiy va madaniy identitet inqirozi, kastachilik, til siyosati va tarixiy adolat masalalarini yoritadigan ushbu adabiyot orqali hind yozuvchilari mustamlaka merosini tanqidiy yondashuv bilan qayta ko‘rib chiqadilar. Hind adabiyotining yetakchi vakillari — Mulk Raj Anand, R.K. Narayan, Salman Rushdie, Arundhati Roy va Amitav Ghosh bo‘lib, ularning asarlarida mustamlakachilikning ijtimoiy va ruhiy oqibatlari, madaniy gibriddlik va qarshilik ruhiyati aks etadi.

Уच्च आधुनिकतावाद (Yuqori Modernizm) XX asr boshlarida shakllangan va adabiy janrlar va uslublar doirasida katta o‘zgarishlar

olib kelgan ijodiy harakat hisoblanadi. Ushbu harakat XX asrning 1920-1930 yillarida yevropa adabiyotida keng qo'llanilgan. Yuqori modernizm an'anaviy adabiy va madaniy me'yorlarni rad etib, yangicha fikrlash uslublarini va eksperimental texnikalarni qo'llab-quvvatlaydi. Yuqori modernistlar o'z asarlarida eksperimentlarga asoslangan uslublarni qo'llaydilar. Masalan, "Ong oqimi" uslubi, tarkibiy fragmentatsiya, va vaziyatlar interpolyatsiyasi. Ushbu asarlar ko'pincha murakkab kompzitsiya va shaklga ega bo'lib, an'anaviy syujet va xronologik izchillikdan chetlashadi. Yuqori modernizm o'z e'tiborini ichki hissiyotlar, xotiralar va ongning ichki jarayonlariga qaratadi. Shaxsiy va sub'ektiv tajribalar oldinga chiqadi. Ushbu harakat ko'pincha XX asr boshlaridagi ma'naviy va madaniy inqirozni bayon qiladi. Dunyoqarashlar va qadriyatlarning o'zgarishi, insoniyatning noaniqlik va beqarorlik his-tuyg'ularini ifoda etadi. Jeyms Joysning "Ulis" (1922) asari yuqori modernizmning klassik namunasi bo'lib, o'zining murakkab struktura, simbolizm va ong oqimi uslubi bilan tanilgan. T.S. Eliotning "Chakalokzor" (1922) she'ri modernizmning muhim asarlaridan biri bo'lib, ma'naviy va madaniy parchalanishni tasvirlaydi. Marsel Prustning "Yo'qolgan vaqt izidan" asari yuqori modernizmning asosiy asarlaridan biri bo'lib, xotiralar va vaqt o'tishi bilan bog'liq murakkab mavzularni tahlil qiladi. Yuqori modernizm zamonaviy adabiy harakatlarning rivojlanishiga, shuningdek, yangi ifoda uslublarini izlashga turtki bo'ldi. Bugungi kunda ham uning ta'siri ko'plab zamonaviy yozuvchilar va shoirlar ijodida ko'rinish turadi. Hind adabiyotida yuqori modernizm XX asrning o'rtalarida, ayniqsa 1950-1960-yillarda shakllangan. Bu davr Hindistonning mustaqillikka

erishishi va keyingi davrlardagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Yuqori modernizm hind adabiyotida yangi ifoda uslublari, eksperimentlar va innovatsiyalar bilan ajralib turadi. Hind modernist yozuvchilari an’anaviy adabiy shakllarni buzish va yangi ifoda uslublarini qo‘llashga intildilar. Nirmal Varma, Agyey hamda Raghuvir Sahay kabi hind adiblari yuqori modernizm yo‘nalishida ijod qilgan. Quyida Nirmal Varma qalamiga mansub “वे दिन” (“O‘sha kunlar”) romanidan parchada yuqori modernizmning ta’sirini kuzatishimiz mumkin:

उसने कमरे की खिड़की से बाहर झाँका। बारिश की बूँदें धीमी-धीमी गिर रही थीं।

उन बूँदों की आवाज़ में एक अजीब सी तन्हाई थी। वह खिड़की के पास खड़ा रहा,

उन बूँदों को सुनता रहा, जैसे वे बूँदें उसके भीतर की गहराइयों में उतर रही हों।

उसे लगा कि यह बारिश सिर्फ बाहर नहीं, बल्कि उसके भीतर भी हो रही है।

उपसंहार (Epilog). Adabiyotshunoslikda dramatik asar, roman yoki boshqa adabiy matnning asosiy sujet yakunlanganidan so‘ng beriladigan qisqa yakunlovchi qismi bo‘lib, kitobxoniga qahramonlarning keyingi taqdiri, muallifning fikri yoki xulosa haqida ma’lumot beradigan badiiy qurilma hisoblanadi. Qahramonlarning keyingi taqdirini ko‘rsatish; voqealarning umumiyl xulosasini berishi; kitobxonning hissiy yakunini shakllantirishga yordam berishi hamda muallifning fikrini bevosita bildirishiga imkon berish kabi vazifalarni bajaradi. Klassik epilogning yorqin namunasi Shekspirning “To‘fon” dramasida Prospero spektakl oxirida sahnaga chiqib, “tomoshabinga

murojaati” hisoblanadi. Rus yozuvchisi Lev Tolstoyning “Urush va tinchlik” romanida asosiy voqealar tugagandan keyin epilogda tarixiy-falsafiy mushohada beriladi. Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanida bevosita epilog ajratilmagan bo’lsa-da, asar tugashi bilan voqealarning xulosa tusidagi tasviri epilogga yaqin. Hindiy adabiyotida ham epiloglardan bir qancha adiblardan Premchaning “Qurbonlik” romanida, Yashpalning “Yolg‘on haqiqat”, Nirmal Varmaning “So‘nggi o‘rmon”, Ageyning “Shekhar: bir hayot”, Krishna Baldev Vaidning “Bimal, boshqa nomi bilan: “Endi qayerga yo‘l olsin?” kabi asarlarida epiloglardan foydalanilgan.

¶ (E)

एपिग्राफ (Epigraf). Adabiyotshunoslikda asarning boshlanish qismida joylashtirilgan, odatda boshqa muallifdan olingan iqtibos bo‘lib, u asarning ruhiy, estetik yoki g‘oyaviy yo‘nalishini belgilaydi. Shuningdek, badiiy asarning boshida joylashtirilgan qisqa matn yoki iqtibos sifatida asar mazmuniga, mavzusiga yoki asosiy g‘oyasiga ishora qiladi. Epigraf ko‘pincha boshqa bir muallifdan olingan bo‘ladi va asarni o‘qishga tayyorlaydi, kayfiyat yoki nuqtayi nazar taqdim etadi. Fyodor Dostoyevskiy “Jinoyat va jazo” romanida, Franz Kafkaning “Jarayon” romanida epigraflardan foydalanilgan. Nirmal Varma, Agey, Kamleshvar, Arundhati Roy, Amrita Pritam kabi hind yozuvchilar o‘z asarlarini epigraflar bilan boshlaydilar. Nirmal Varmaning dastlabki yangi hikoya yo‘nalishida yozilgan “पर्दे” (“Qushlar”, 1958) nomli hikoya to‘plamining kirish qismi sifatida:

“Can we do nothing for the dead? And for a long time the answer had been - nothing! - Kta-therin Mansfield” (O‘lgan inson uchun hech nima qila olmaymizmi? Uzoq zamonlardan beri javob shundayligicha bo‘lgan-Hech nima!) gaplarni epigraf sifatida olingan va bu bilan yozuvchi kitobxonga yo‘l ko‘rsatishga harakat qilgan.

Энти-роман (Anti-roman). Adabiyotshunoslikda anti — bu an’anaviy roman janriga qarshi turuvchi va uni rad etuvchi badiiy uslub bo‘lib, u XX asrning o‘rtalarida ayniqsa fransuz adabiyotida rivojlangan. Anti-roman — bu roman shaklining o‘ziga xos qoidalarini — ya’ni syujet tartibining o‘zgarishi (an’anaviy sujetning mavjud emasligi — voqealar ketma ketligining buzilishi yoki umuman sujet bo‘lmasligi), qahramonlarning o‘ziga xosligining o‘zgarishi (markaziy qahramon mavjud emasligi, yoki u o‘ziga xos psixologik chuqurlikka ega emasligi), til ustida tajriba (yozuvchilar tildan o‘yin sifatida foydalanishi), izchil voqealar rivoji kabi jihatlarni buzadigan (kitobxon odatiy voqea rivojini kuzata olmaydi, aksincha, matn ustida o‘ylashga majbur bo‘ladi), noan’anaviy shakl va uslubda yozilgan roman shakli hisoblanadi. Bu janr o‘quvchining kutilgan “hikoya”ga bo‘lgan talabini rad etadi. Fransuz yozuvchisi Alain Robbe-Grillet “La Jalouse” (“Hasad”) romani klassik roman tuzilmasini butkul rad etgan romanlaridan biri hisoblanadi. Nathalie Sarrautining “Oltin mevalar”, Michel Butorning “La Modification”, Nobel mukofoti sohibi Klaude Simonning “Flanderlar ko‘chasi”, Samuel Bekkettning “Molloy” kabi romanlar anti-roman sirasiga kiruvchi jahon adabiyotining yorqin namunalariga hisoblanadi. Hindiy adabiyotida ham anti-roman ta’sirlari kuzatiladi. Nirmal varmaning “Tun muxbiri”, Krishna Baldev

Vaidning “Uning bolaligi” hamda “Bitgan Zamon”, Vinod Kumar Shuklaning “Devorda bir oyna bor edi” kabi romanlarida anti-roman elementlarini kuzatish mumkin.

କ (K)

କଥାର୍ସିସ / ଆତ୍ମଶୁଦ୍ଧି (Katarsis). Bu adabiy asarni o‘qish yoki tomosha qilish orqali o‘quvchi yoki tomoshabinning ichki hissiyotlarini tozalashi, ruhiy yengillik topishi holatini ifodalaydigan estetik tushuncha bo‘lib, bu atama Arastu (Aristotel) tomonidan ilgari surilgan. Tushuncha Arastuning “Poetika” asariga asosan, kitobxonda tragediya kishida rahm va qo‘rquv uyg‘otadi va bu hissiyotlar orqali katarsisga olib keladi. Fojiali asar orqali qo‘rquv, achinish, iztirob kabi chuqur histuyg‘ularni boshdan kechirish orqali o‘quvchida ruhiy poklanish, tozalik va yengillik hosil bo‘lishi holati kuzatiladi. Hind adabiyotida katarsis tushunchasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri “katarsis” atamasi bilan emas, lekin Bhakti, Sufi va zamonaviy fojiali hikoyalar orqali ruhiy tozalanish, pushaymonlik, achinish va o‘z-o‘zini anglash jarayonlari sifatida ko‘plab asarlarda aks etadi. Premchandning “Kafan” hikoyasida o‘quvchi kambag‘al otaning befarqligidan dahshatga tushib, ruhan charchaydi; Amrita Pritam “Pinjar” (“Skelet”) romanida ayol qahramonning o‘z holatini tan olishi — ichki tozalanish va fojiali anglashi; Bhisham Sahni “Jaholat” romanida diniy zo‘ravonlik tasvirida o‘quvchi og‘riq va iztirobni boshdan kechiradi.

କାଲ ବିକ୍ରତି (Vaqtning buzilishi) - bu hikoya ichidagi vaqtini boshqarishni anglatadi. Bu hodisalar ketma-ketligini o‘zgartirishni o‘z ichiga oladi, ko‘pincha orqaga qaytish, oldinga sakrash, sujet hamda

kompozitsiyada tartibning o‘zgarishi orqali amalga oshiriladi. Ushbu adabiy texnika (usul) murakkab hikoyalar yaratish, qahramonlarning psixologik holatlarini o‘rganish yoki xotira, tarix va vaqt ni idrok etish bilan bog‘liq mavzularni ta’kidlash uchun qo‘llaniladi. Vaqtning buzilishi asrlar davomida adabiyotda qo‘llanilgan bo‘lsa ham, XX asr boshlarida modernizm va postmodernizm adabiyotlari paydo bo‘lishi bilan alohida ahamiyat kasb etdi. Jeyms Joys, Virjiniya Vulf va Marsel Prust kabi yozuvchilar vaqtdan foydalanish bo‘yicha o‘zlarining innovatsion yondashuvlari bilan mashhurdirlar. Postmodern adabiyotda Kurt Vonnegut va Gabriel Garsía Markez kabi mualliflar vaqt strukturalari bilan tajriba o‘tkazdilar. Bir necha hind yozuvchilar o‘z hikoyalarini boyitish, qahramonlarini chuqurroq tushuntirish va mavzu masalalarni yoritish uchun vaqtning buzilishini qo‘llaganlagan. Nirmal Varma “Qizil tunuka tom” (“लाल टीन की छत”) asosan orqaga qaytishlardan foydalanib, qahramonlarining psixologik holatlarini o‘rganadi. Adib bosh qahramon hayotining turli davrlarini bir-biriga bog‘lab, inson munosabatlari va xotiraning murakkabliklarini ochib beradi. "Qancha Pokistonlar" nomli romanida Kamleshvar vaqtning buzish orqali tarixiy voqealarni bosh qahramonning shaxsiy tajribalari bilan birlashtiradi. Roman turli davrlarni kesib o‘tib, Hindistonning bo‘linishi va zamonaviy muammolarni solishtiradi, shuningdek, tarixning hozirgi mentalitetlar va ziddiyatlarga ta’sirini ko‘rsatadi. Krishna Sobi "Hayotnama" asarida fragmentar hikoya strukturasidan foydalanadi, bu yerda vaqt suyilishi mavjud bo‘lib, o‘tmish va hozir hikoya ichida birga beriladi. Ushbu texnika orqali u hind qishloq hayotining avlodlar osha davomiyligi va o‘zgarishini o‘rganadi.

Kamleshvarning “Qancha Pokistonlar” romanidan olingan misolga e’tibor berilsa, vaqtning buzilishini kuzatish mumkin:

कहानी की शुरुआत होती है वर्तमान से, लेकिन तुरंत ही अतीत में चली जाती है, विभाजन के समय की घटनाओं को याद करते हुए। वर्तमान और अतीत के बीच यह आवाजाही पूरी कहानी में बनी रहती है, जो समय की जटिलताओं और उनकी स्थायी छाप को दर्शाती है।

“Hikoya hozirgi zamonda boshlanadi, lekin darhol o ‘tmishga o ‘tadi, bo ‘linish davridagi voqealarni eslab. Hozirgi va o ‘tmish o ‘rtasidagi bu harakat butun hikoya davomida davom etadi, bu esa vaqtning murakkabliklarini va uning doimiy izlarini ko ‘rsatadi.”

Vaqtning buzilishi hikoyaga qatlamlar qo’shib, uni boy va murakkab qiladi. Turli davrlar o‘rtasida siljish orqali yozuvchi turli hodisalar va ularning ta’sirlarini solishtirib, qahramonlar va mavzularga ko‘p o‘lchovli yondashuvni ta’minlaydi. Ushbu texnika yozuvchilarga qahramonlarning ongiga kirib, o‘tmish tajribalari hozirgi harakat va fikrlariga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatishga imkon beradi. Bu qahramonlarning psixologik portretini yanada chuqurroq yaratishga yordam beradi.

Vaqtni buzish ko‘pincha xotira, tarix va vaqtning o‘tishi bilan bog‘liq mavzularni o‘rganish uchun foydalaniladi. Bu yozuvchiga o‘tmish voqealari hozirgi va kelajakdagi ta’sirini ko‘rsatish, turli davrlarning o‘zaro bog‘liqligini ta’kidlash imkonini beradi.

कालबाह्यविज्ञान yoki कालविपरीतता (Anaxronologiya yoki asarda vaqt tartibi). Adabiyotshunoslikda “narratologiya” (hikoya qilish, bayon qilish ilmi) bilan bog‘liq bo‘lgan tushuncha bo‘lib, hikoyaning

vaqtini (masalan, “পূর্বদশ্য yoki অতীত দশ্য” “analepsis” (o‘tmishga qaytish) va “ভবিষ্যদশ্য yoki আগে কা দশ্য” “prolepsis” (kelajakka nazar tashlash)) va voqealar o‘rtasidagi vaqt ketma-ketligi yoki bog‘liqligini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Bu tushuncha, adabiy asarlar va matnlar ichida vaqtning qanday o‘zgarishi va bir voqeaning boshqa voqealar bilan qanday bog‘lanishini ko‘rib chiqadi. Matndagi o‘zgaruvchan vaqtni va vaqtning asar mazmuniga, uslubiga hamda badiiy maqsadga qanday ta’sir qilishini tadqiq qiluvchi badiiy vosita hisoblanadi.

কব্বালী, গীতিকা yoki বলাড় (Ballada). Adabiyotshunoslikda ballada qisqa, ko‘pincha she’riy shakldagi epik asar bo‘lib, unda odatda dramatik yoki sentimental voqea tasvirlanadi. Ballada, odatda, xalq adabiyotida keng tarqalgan bo‘lib, uning asosiy xususiyati qisqa hikoya tarzida yozilishi va o‘zining ritmik va musiqiy tuzilishiga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Ballada, asosan, biror dramatik voqea yoki hikoya asosida quriladi. Bu voqea odatda biror ijtimoiy, tarixiy yoki shaxsiy ahamiyatga ega bo‘ladi. Shungdek, hajm jihatdan qisqa bo‘lib, ular o‘qish yoki eshitish uchun oson va ifodali shaklda yoziladi. Ko‘pincha musiqaga mos keladigan ritm va tuzilishga ega bo‘ladi, shu sababli ular qadimgi yoki o‘rta asrda ko‘pincha qo‘sinq sifatida kuylangan. Hind adabiyotida ham ballada janri mavjud bo‘lib, u odatda xalq she’riyatida yoki romanlarda dramatik hikoyalar sifatida foydalilaniladi. Tulsidasning “Ramcharitmanas” kabi asarida balladaga o‘xshash elementlar topiladi. Shuningdek, Faiz Ahmad Faiz, Kumari Chouhan kabi ba’zi

zamonaviy hind shoirlari ham balladalar yaratishda musiqiy va dramatik elementlardan foydalanishgan.

Канон (Kanon). Adabiyotshunoslikda muayyan madaniyat, davr yoki adabiy an'ana doirasida qat'iy o'rnatilgan qoidalar majmui, me'yor asosidagi eng muhim, vakillik qiluvchi va namunali deb tan olingan asarlar va mualliflar to'plamini ifodalovchi atama hisoblanadi. Navoiy yoki Shekspir kabi mualliflar o'z adabiyotlarining kanoniga kirgan yozuvchilardir, chunki ularning asarlari adabiy meros, estetik me'yor va tarixiy ahamiyat egaligi bilan e'tirof etilgan. So'nggi yillarda ba'zi adabiyotshunoslар tomonidan kanon atamasi muayyan adabiy-estetik mezonlarga ko'ra tan olingan va adabiy ta'sir kuchi yuqori deb hisoblangan an'anaviy matnlar to'plamiga nisbatan ham qo'llanadi. Bu matnlar adabiyotshunoslik doirasida nufuzli va namunali deb e'tirof etiladi. Hindiston xalqlari adabiyotida ham Tulsidas, Kabir hamda Premchand kabi adiblar o'z adabiyotlarining kanoniga yaratgan yozuvchilar hisoblanadi.

Кронотоп (Xronotop). Adabiyotshunoslikda bu adabiy asarda vaqt va makonning birgalikda ifoda topgan badiiy birlik shakli, ya'ni ular qanday uyg'unlashadi, qanday ifodalanadi va qanday mazmun hosil qilishiga xronotop deb ataladi. Ushbu atama asosan rus adabiyotshunosi Mixail Baxtin tomonidan ilgari surilgan bo'lib, roman shaklining rivojlanishida muhim konseptual tushuncha hisoblanadi. Adabiy asarning estetik tuzilmasini aniqlash (voqealar qanday va qayerda kechadi, qanday o'zgaradi); qahramonning harakati va ruhiy holatini ko'rsatish; itimoiy tarixiy kontekstni aks ettirish; turli janrlar orasidagi farqni belgilash (jumladan romantik, epik, modern va postmodern

asarlarda xronotop turlicha bo‘ladi) kabi vazifalarni o‘z oldiga maqsad qilib oladi. Fyodor Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo” asarida qamoqxona va ichki iztirob orqali vaqt-makonning torayishi. Jeyms Joysning “Ulis” romanida bir kun ichida butun umr aks ettirilgan. Vaqt uzayadi, makon harakat bo‘ladi. Hind adabiyotida ham xronotop bilan bog‘liq elementlar aks ettirgan yozuvchilardan Nirmal Varmaning “Tun muxbiri” romanida vaqt va makonning ichki, xotiraviy sur’atlarda ketishi -xotira xonotopi, psixologik vaqt shakllanadi. Premchandning “Qurbanlik” qishloq makoni va tarixiy vaqt aks ettirilishi xronotopga misol bo‘la oladi.

Х (KX)

Ханѓитта (Fragmentatsiya) adabiyotshunoslikda bir-biriga bog‘lanmagan yoki nisbatan mustaqil qismlardan iborat bo‘lgan asarlar yaratish usuli hisoblanadi. Bu uslubda yozilgan asarlar o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan voqealar, belgi va hikoyalarni o‘z ichiga oladi, bu orqali bir butunlikni sintez qilishdan ko‘ra, bo‘laklanganlikni va parcha-parchalanganlikni ifodalash ustunlik qiladi. Fragmentatsiya ko‘pincha postmodern adabiyotda qo‘llaniladi va zamonaviy dunyoning murakkabligi va bo‘linishini aks ettiradi. Asarlar ko‘pincha an’anaviy syujet chizig‘idan uzoqlashib, bir-biriga bog‘lanmagan yoki qisman bog‘langan qismlardan iborat bo‘ladi. O‘quvchi voqealarini bir-biriga ulashda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, chunki asarda voqealar ketma-ketligi va vaqtning o‘zgarishi ko‘pincha murakkab bo‘ladi. Qahramonlar ko‘pincha murakkab, ko‘p qirrali va o‘zaro ziddiyatli bo‘lib, ularning fikrlari va harakatlari fragmentlar orqali tasvirlanadi.

Jems Joysning “Ulis” asari fragmentatsiya uslubining yorqin namunasi hisoblanadi. Shuningdek, Virjiniya Vulfning asarlarida ham fragmentatsion elementlar mavjud bo‘lib, inson ongining bo‘laklanishini aks ettiradi. Vilyam S. Burroghsning “Yolong‘och tushlik” asari fragmentatsiyaning yorqin namunasi bo‘lib, voqeilik bir-biriga bog‘lanmagan qismlar va syujetlar orqali hikoya qilinadi. Hind adabiyotida fragmentatsiya XX asrning o‘rtalarida va keyingi yillarda rivojlandi. Bu uslub hind yozuvchilari tomonidan zamonaviy dunyoning murakkabligini, individual va jamiyatning bo‘linishini ifodalash uchun qo‘llanildi. Zamonaviy hind yozuvchilaridan bo‘lgan Amitav Ghoshning asarlarida fragmentatsiya elementlari mavjud bo‘lib, u turli vaqtlardagi va joylardagi voqealarni bir-biriga ulab hikoya qiladi. Arundhati Royning “Kichik narsalar xudosi” asarida fragmentatsion uslub seziladi, bu orqali u oila va jamiyatning murakkabliklarini aks ettiradi. Salman Rushdining “Midnight’s Children” (“Yarim tunda tug‘ilgan bolalar”) asarida fragmentatsion uslubdan foydalangan holda Hindistonning mustaqillik davrini tasvirlaydi. Hindiy adabiyotda fragmentatsiya uslubi XX asrning o‘rtalarida, hind jamiyatida zamonaviylik va modernizm ta’siri kuchaygan davrda paydo bo‘ldi. Bu davrda yozuvchilar turli ijtimoiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlarni tasvirlash uchun yangi adabiy uslublarni izlay boshladilar. Fragmentatsiya hind jamiyatining bo‘linishini va murakkabligini aks ettirishda muhim vosita bo‘ldi. Yana bir mashhur hind adibi Shrilal Shukla tomidan yozilgan “राग दरबारी” (“Shohona saroy musiqasi”) nomli romani butunlagicha fragmentatsiya

uslubida yozilmagan bo‘lsa-da, unda ushbu uslub elementlarini kzatish mumkin:

गाँव के चौपाल पर लोग इकट्ठा थे। हर कोई अपनी बात कह रहा था, लेकिन कोई किसी की सुन नहीं रहा था। कभी किसी का हँसी का ठहाका गूंजता, कभी किसी की शिकायत की आवाज़। इस शोर के बीच, एक आदमी अकेला बैठा था, जैसे यह सब उसके लिए ही हो रहा हो। उसने अपने आस-पास की दुनिया से आँखें बंद कर लीं और अपने भीतर के शोर को सुनने लगा।

Г (G)

गैर-रैखिक समयरेखा (chiziqsiz vaqt chizig‘i) - adabiyotda bayon yoki hikoya qilishning bir uslubi bo‘lib, voqealar xronologik tartibda emas, balki aralash tarzda tasvirlanadigan usul bo‘lib, voqealar ketma-ketligini buzish, ularni vaqt va makonda turli nuqtalarda joylashtirish orqali amalga oshiriladi. Bunday usul yordamida yozuvchi o‘quvchiga voqealarning sabab-natija aloqalarini murakkabroq va qiziqarliroq tarzda ochib beradi. O‘tmishga qaytish kabi usul orqali voqealarni o‘qish davomida o‘quvchini o‘tmishdagi bir lahzaga olib boradi. Yoki kelajakka sayohat usuli bilan esa kelajakdagi voqealar haqida ma’lumot beradi. Bir nechta hikoya chiziqlari bir vaqtida rivojlanadi, lekin ular turli vaqt davrlarida sodir bo‘ladi. Hikoya episodlarga bo‘linadi va har bir epizod turli vaqt va joyda sodir bo‘ladi. Bu segmentlar bir-biriga bog‘liq yoki mustaqil bo‘lishi mumkin. Voqealar ketma-ketligi aralashib ketishi natijasida, hikoyaning oxiri boshida ochilib,

o‘quvchini hayratlantirishni uddasidan chiqadi. Voqealar ketma-ketligini buzish orqali hikoyaga drama qo‘sadi va o‘quvchini voqealar qanday bog‘langanini tushunishga majbur qiladi. Gabriel Garsia Markez – “Yolg‘izlikning yuz yili” romanida bir necha avlodlarning hikoyalarini aralash va chiziqsiz tarzda tasvirlaydi. Kurt Vonnegutning “Beshinchi qassobxona yoki Bolalar salib yurishi” romanida voqealar Billy Pilgrimning vaqt va makon bo‘ylab sakrashlari orqali aralash tarzda tasvirlanadi.

Toni Morrisonning “Qadirli” romani o‘tmish va hozirgi vaqt oralig‘ida doimiy ravishda o‘zgarib turadi, bu orqali o‘quvchi xarakterlar va ularning tajribalarini chuqurroq tushunadi. Bu usul yordamida yozuvchilar voqealarni murakkabroq va qiziqarliroq tarzda tasvirlash imkoniyatiga ega bo‘lib, o‘quvchilarga chuqurroq tushuncha va qiziqish bag‘ishlaydi. Bu usulni muvaffaqiyatli qo‘llash hikoyaning dramatik ta’sirini oshiradi va o‘quvchini voqealarning sabab-natija aloqalarini izlashga majbur qiladi. Hind adabiyotida ushbu usuldan foydalanish XX asrning o‘rtalarida mashhurlik kasb eta boshladi va bu global adabiy tendentsiyalar hamda Hindistondagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar ta’sirida sodir bo‘ldi. Bu bayon qilish uslubi yozuvchilarga haqiqatning murakkab va parchalanib ketgan tasvirlarini o‘rganishga imkon berdi va zamonaviy hamda postmodernistik adabiyotdagi keng ko‘lamli o‘zgarishlar bilan mos keldi. Agyey, Nirmal Varma va Mohan Rakesh kabi yozuvchilar ushbu uslubni qo‘llash orqali inson tajribasi va xotirasining murakkabliklarini o‘rganib, o‘z davrining keng ko‘lamli ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarini aks ettirdi. Ushbu yangilik hind adabiyotida yanada boy va ko‘p qirrali tasvir yaratishga imkon berdi.

Xususan, Nirmal Varma qalamiga mansub “пэрінде” (“Qushlar”) nomli hikoyasidan olingan parchaga e’tibor qaratish lozim:

नीलू ने खिड़की से बाहर देखा और अचानक उसे वह दिन याद आ गया जब वह पहली बार इस शहर में आई थी। तब भी ऐसी ही सर्द हवा चल रही थी। उसका मन अनायास ही बीते दिनों की ओर लौट गया।

Nilu derazadan tashqariga qaradi va to ‘satdan bu shaharga birinchi marta kelgan kunini esladi. O’shanda ham shunday sovuq shamol esardi. Uning xayoli beixtiyor o’tmishga qaytdi.

Hikoya hozirgi vaqtdan boshlanadi va keyin Niluning o’tmishini eslash orqali vaqt oralig‘ida harakatlanadi. Bu o’tmish va hozirgi vaqtni bir-biriga bog‘lab, qahramonning fikrlari va his-tuyg‘ularini aks ettiradi. Vaqt jadvalining noan’anaviyligi inson xotirasining suyuqligini va hozirgi voqealarga bo‘lgan ta’sirini aks ettiradi. Niluning hozirgi vaqtdagi hissiyotlari va xotiralari bir-biriga bog‘liq bo‘lib, uning ichki hayotini yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi. O’tmish va hozirgi vaqt o‘rtasidagi harakat Verma qahramonlarining hissiy chuqurligini ochib beradi. Bu esa ularning ichki hayoti, hissiyotlari va izlanishlarini ko‘rsatadi.

Ч (CH)

चेतना की धारा, मन की धारा (Ong oqimi) adabiyotshunoslikda ong oqimi (inglizcha "stream of consciousness") usuli yozuvchi tomonidan personajning ongida kechayotgan fikrlar, his-tuyg‘ular va tasavvurlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalash hisoblanadi. Bu usul insonning ong jarayonlarini aniq va chuqr tasvirlashga qaratilgan bo‘lib, odatda personajning ichki monologlari, esdaliklari va tushunchalari orqali

amalga oshiriladi. Ong oqimi usulida personajlarning ichki monologlari, ya’ni o‘zлari bilan o‘zлari olib boradigan suhbatlari tasvirlanadi. Bu monologlar orqali ularning chuqur his-tuyg‘ulari va fikrlari ifodalanadi. Ong oqimi usulida fikrlar va tasavvurlar bir-biriga erkin o‘tadi. Bu usulda yozilgan matnlar odatda grammatik jihatdan mukammal bo‘lmasligi, nutq tarkibi va mantiqiy bog‘lanishlar buzilishini kuzatish mumkin. Ushbu usul personajlarning chuqur psixologik holatlarini tasvirlashga intiladi. Bu orqali ularning ichki dunyosi, shaxsiy tajribalari va ichki kurashlari ochib beriladi. Ong oqimi usulida vaqtning o‘ziga xos tasviri mavjud. Fikrlar va xotiralar vaqt davomida bir-biriga ulanib ketadi, bu esa real vaqt tushunchasini chalkashtiradi. Shuningdek, har bir personajning sub’yektiv haqiqatlari va hissiyotlari ifodalanadi. Bu esa asarning ichki dramatizmini oshiradi. Jeyms Joysning “Ulis” asari ong oqimi usulining yorqin namunasi sifatida qabul qilinadi. Asarda Leopold Blum va boshqa personajlarning ichki fikrlari va his-tuyg‘ulari batafsil tasvirlanadi. Virjiniya Vulfning “Mayoq” va “Dallovay xonim” asarlarida ong oqimi usulidan foydalanilgan. Bu asarlarda personajlarning ichki dunyosi va psixologik holatlari chuqur tasvirlangan. Vilyam Folknerning “Shovqin va G‘aza” asarida ong oqimi usulidan foydalanib, personajlarning o‘ziga xos va murakkab ichki hayotini tasvirlagan. Adabiyotda ong oqimi usuli inson ongingin murakkab va chuqur jarayonlarini ifodalashga qaratilgan. Ushbu usul orqali yozuvchilar personajlarning ichki monologlari va fikrlarining erkin harakatini tasvirlaydilar. Hind adabiyotida ong oqimi usuli XX asrning o‘rtalarida, xususan, 1950-1960-yillarda rivojlana boshladi. Bu davr hind adabiyotida modernizm

va yangi uslublarning kirib kelishi bilan bog‘liq edi. Ong oqimi usuli hind yozuvchilari tomonidan G‘arb adabiyoti, xususan, Jeyms Joy va Virjiniya Vulfning asarlaridan ilhomlanib qabul qilindi. Nirmal Varma, Mohan Rakesh va Kamleshvar kabi yozuvchilar hind adabiyotida ong oqimi usulining yorqin namoyandalari hisoblanadi. Misol uchun hind hikoyanafisi Nirmal Varma qalamiga mansub “Bir kunlik mehmon” ong oqimi uslubini kuzatish mumkin:

वह उसके पीछे आ कर खड़ा हो गया; सिंक के ऊपर आईने में उसने अपना चेहरा देखा - रुखी गर्द और बढ़ी हुई दाढ़ी और सुख आँखों के बीच उसकी ओर हैरत में ताकता हुआ - नहीं, तुम्हारे लिए कोई उम्मीद नहीं...

पापा, क्या तुम अब भी अपने-आपसे बोलते हो? हाँ, लेकिन अब मुझे कोई सुनता नहीं. उसने धीरे से बच्ची के कंधे पर हाथ रखा, क्या फ्रिज में सोडा होगा?

Kishi kelib, uning orqasida turdi; u jo ‘mrak ustidagi ko ‘zguda o ‘zining yuzini ko ‘rdi - quruq va chang, olinmagan soqol hamda hayratda unga tikilib turgan qizil ko ‘zlar - yo ‘q, sen uchun umid yo ‘q.

- *Dadajon, hali ham o ‘zingiz bilan o ‘ziz gaplashasizmi?*
- *Ha, biroq hozir meni hech kim eshitmaydi. U ohista qo ‘lini qizning yelkasiga qo ‘ydi.*

ज (J)

जादुई यथार्थवाद (Magik realizm) – bu realistik va fantastik unsurlar birgalikda qo‘llaniladigan adabiyotning yo‘nalishi hisoblanadi. Ushbu uslubda yozilgan asarlarda oddiy hayotiy voqealar sirli, g‘ayritabiyy

yoki fantastik hodisalar bilan uyg‘unlashadi. Magik realizmda fantastik elementlar haqiqiy hayotning bir qismi sifatida qabul qilinadi. Magik realizmda fantastik voqealar va unsurlar realistik hayotiy voqealar bilan birga tasvirlanadi. Fantastik hodisalar odatiy hayotning bir qismi sifatida qabul qilinadi va ular kitobxon tomonidan shubhasiz qabul qilinadi. Asarlardagi qahramonlar fantastik hodisalarni oddiy va tabiiy holat sifatida qabul qilishadi. Ular bu hodisalarga hech qanday hayrat yoki shubha bilan qarashmaydi. Magik realizm asarlarida ko‘pincha xalq afsonalari, miflar va e’tiqodlar o‘z o‘rnini topadi. Bu elementlar hikoyaga chuqur ma’no va ramziy ko‘rinish beradi. Magik realizm asarlari detallar va tasvirlar bilan boyitilgan bo‘lib, bu uslubning o‘ziga xos xususiyatidir. Har bir detal va voqealarning katta e’tibor bilan tasvirlanadi. Ko‘plab magik realizm asarlari ijtimoiy va siyosiy muammolarni ko‘tarib chiqadi. Bu uslub orqali yozuvchilar real hayotdagi muammolarni fantastik unsurlar bilan yoritishga harakat qiladilar. Gabriel Garsia Markezning “Yolg‘izlikning yuz yili” (“Cien años de soledad”) romani magik realizmning eng mashhur namunasi hisoblanadi. Ushbu asarda real va fantastik unsurlarning o‘zaro uyg‘unligi o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqadi. Izabel Allendning “Ruhlar uyi” (“La casa de los espíritus”) romani ham magik realizmning yorqin namunasi bo‘lib, ushbu asarda afsonalar, ruhlar va hayotiy voqealar bir-biri bilan uyg‘unlashadi. Hind adabiyotida magik realizmning paydo bo‘lishi va rivojlanishi o‘ziga xos tarixiy va madaniy sharoitlarga bog‘liq. Bu yo‘nalish, asosan, o‘ziga xos hind madaniyati va tarixidan ilhomlanib, xalq afsonalari, miflar va real hayotiy voqealarni fantastik unsurlar bilan boyitishga intilgan

yozuvchilar orqali rivojlandi. Salman Rushdiyning “Yarim tunda tug‘ilgan bolalar” (“Midnight’s Children”) romani hind adabiyotida magik realizmda yozilgan asarlar qatoriga kiradi. Ushbu asarda Hindistonning mustaqillikka erishish davri va undagi voqealar fantastik unsurlar bilan boyitilgan holda tasvirlanadi. Magik realizm adabiyotda realistik va fantastik unsurlarni uyg‘unlashtirib, o‘quvchini hayotning mo‘jizaviy va g‘ayritabiiy tomonlariga e’tibor qaratishga undaydi. Bu uslub orqali yozuvchilar real hayotning chuqur va murakkabligini o‘ziga xos tarzda yoritishga harakat qiladilar. Nirmal Varma, Gitanjali Shri hamda Rahi Masumm Raza kabi hind ijodkorlari magik realizmda asarlar yaratishgan. Misol uchun Nirmal Varma qalamiga mansub “लाल टीन की छत” (“Qizil tunukali tom”) romanidagi quyidagi parchada ushbu yo‘nalishning ta’siri sezilib turibdi:

रात के अंधेरे में जब सब सो रहे थे, छत पर एक हल्की रोशनी चमकने लगी। वह रोशनी कोई साधारण रोशनी नहीं थी, बल्कि उसमें एक अद्भुत जादुई शक्ति थी। जैसे ही रोशनी फर्श पर पड़ी, फूल खिलने लगे, और दीवारें एक सपने की तरह रंगीन हो गईं। कोई नहीं जानता था कि यह रोशनी कहाँ से आई थी, लेकिन यह सबके जीवन का हिस्सा बन गई थी।

Д (D)

ДАДАВАД (Dadaizm) XX asr boshlarida rivojlangan, ayniqsa Birinchi Jahon urushi davrida shakllangan avangard san’at va adabiyot harakati hisoblanadi. Ushbu harakat an’anaviy san’at, adabiyot va madaniyat me’yorlariga qarshi isyon ko’tarib, absurd, mantiqsiz, asossiz va

parcha-parcha elementlardan foydalangan. Dadaizmning asosiy maqsadi mavjud san’at shakllarini va madaniy me’yorlarni yo‘q qilish va yangilash hisoblangan. Dadaistlar o‘z asarlarida tasodif va baxtsiz hodisalarni qo‘llab, ijodiy jarayonni tartibsizlik va tasodifiylikka asoslashgan. Dadaistlar parodiya va ironiyadan foydalanib, jamiyatning, san’atning va adabiyotning an’anaviy qadriyatlarini masxara qilgan. Kollaj va montaj texnikalari dadaistlar tomonidan keng qo‘llanilgan. Bu usullar yordamida bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan elementlarni birlashtirib, yangi va g‘ayrioddiy asarlar yaratgan. Dadaizm provokatsiya va shok usulidan foydalangan. Ularning maqsadi o‘quvchi yoki tomoshabinning tasavvurini qitiqlash va an’anaviy fikrlash usullariga qarshi turish bo‘lgan. Harakatning asoschilaridan biri ruminiyalik shoir Tristan Tzara edi. Unga yana Hans Arp, Hugo Ball, Marsel Duchamp va Maks Ernst kabi san’atkorlar va adabiyotchilar qo‘shilgan. Dadaizm tez orada dunyoning boshqa shaharlariga ham tarqaldi, jumladan, Berlin, Parij va Nyu-York. Tristan Tzaraning “Gaz yurak” (“Le Coeur à gaz”) pyesasi dadaizmning an’anaviy drama shakllarini buzadigan klassik namunasi hisoblanadi. Hyugo Bollning “Karavane” she’ri dadaizmning so‘zlar va tovushlar bilan eksperiment qilish usulining ajoyib namunasi hamda Marsel Duchampning asarlari dadaizm falsafasini yaxshi ifodalab beradi. Dadaizmning ta’siri faqat san’at va adabiyot bilan cheklanmaydi. U kino, fotografiya, musiqa va hatto moda kabi boshqa sohalarda ham seziladi. Dadaistlarning eksperimentlari va radikal fikrlari keyinchalik paydo bo‘lgan surrealizm va boshqa avangard harakatlarga ham asos solgan. Dadaizm adabiyoti va san’atda o‘zining beparvoligi, an’anaviy

qadriyatlarni buzishi va ma’nisizligi bilan esda qoladi. Ushbu harakat har qanday an’anaviy qoidalarni rad etib, yangi va g‘ayrioddiy ifoda shakllarini yaratishga intilgan. Dadaizm hindiy adabiyotida to‘liq bir harakat sifatida shakllanmagan bo‘lsa-da, uning ba’zi elementlari va uslublari hindiy adabiyotda aks etgan. Hindiy adabiyotda dadaizmning aniq namunalari kam bo‘lishiga qaramay, eksperimentallar va radikal yo‘nalishlar orqali uning ta’siri ko‘rinib turadi. Hindiy adabiyotda dadaizmning g‘oyalari va uslublari bilan tajriba o’tkazgan ba’zi yozuvchilar mavjud. Hindiy adabiyotda dadaizmning asosiy uslubi - radikal eksperimentatsiya - adabiy janrlar va shakllar bilan tajriba qilish orqali aks etgan. Tasodifiylik va absurdlik hindiy adabiyotda ba’zi yozuvchilar tomonidan qo‘llanilgan. Ushbu uslublar mantiqsiz va absurd elementlarni kiritib, an’anaviy hikoya va bayon uslubiyati tuzilmalarni rad etgan. Hind yozuvchi va shoirlaridan S. H. Vatsyayan “Agey” hindiy adabiyotining modernistik harakati bilan bog‘liq yozuvchi bo‘lib, uning asarlari dadaizmga xos eksperimental va radikal uslublarni o‘z ichiga oladi. Uning asarlari mantiqsizlik va absurdlik elementlarini o‘z ichiga olgan. Raghuvir Sahay ham hindiy adabiyotining modernistik yo‘nalishida ijod qilgan yozuvchilardan biri. Uning she’rlari va hikoyalari dadaizmning anti-an’anaviy uslublarini aks ettiradi. Misol uchun: Agyeyning “Shekhar: Yagona umr” romani hindiy adabiyotida modernizm va eksperimental uslublarni birlashtirgan asarlardan biridir. Roman an’anaviy bayon tuzilmalarni buzadi va psixologik tadqiqotlarni amalga oshiradi. Shuningdek, Raghuvir Sahay – “Odamlar unutdi” nomli she’ri hind jamiyatining ijtimoiy va siyosiy haqiqatlarini tanqid qiladi. She’rda insonlarning

unutish odati va jamiyatdagiadolatsizliklarga nisbatan beparvoligi aks ettirilgan. Bu she'r orqali muallif odamlarning ichki qo'rquvlarini va jamiyatdagi nohaqliklarni fosh qilib, absurdlik va mantiqsizlik elementlaridan foydalanib jamiyatning nohaqliklarini va inson ruhiyatining murakkabliklarini ochib beradi:

लोग भूल गए हैं
लोग सचमुच भूल गए हैं
लोग अधाए हैं
लोग अपने घरों में दुबके हैं
लोग मस्त हैं
लोग शान से बैठे हैं
लोग समझे बैठे हैं कि
उनके कानों में फिर कभी
कोई आवाज़ नहीं आएगी
लोग यह भूल गए हैं
लोग यह भूल गए हैं
कि कोई चिल्लाकर पूछेगा
कि यह कैसे हुआ
लोग मस्त हैं
लोगों की दुम निकल आई है
लोगों के हाथ बँधे हैं
लोग भूल गए हैं
कि एक तरह का जेलखाना
उनके लिए भी बन सकता है
लोग अपने को
पहुंचा हुआ समझ रहे हैं
लोग भूल गए हैं
कि एक बच्चे का बाप
उस बच्चे के सामने
क्यों पिटा और पिटकर मर गया
लोग भूल गए हैं कि बच्चे का बाप
हाथ बाँधे क्यों खड़ा रहा

और क्यों चिल्लाया
 लोग भूल गए हैं
 लोग मस्त हैं
 लोग दरअसल भूल नहीं गए हैं
 लोग डर गए हैं

ନ (N)

ନଵ-କ୍ଲାସିକୀ ପ୍ରବୃତ୍ତି yoki ନଵ-କ୍ଲାସିକୀୟତା (Neoklassitsizm).

Adabiyotshunoslikda klassik adabiyot an'analariga asoslangan, mantiq, uyg'unlik, axloqiyilik va shakliy intizomni ideal deb bilgan adabiy harakat va estetik qarashlar tizimi neoklassitsizm deb ataladi. XVIII asrda Yevropa adabiyotida va san'atida yuzaga kelgan adabiy-estetik yo'nalish bo'lib, u antik yunon-rim klassik adabiyoti, tartib, aql, me'yor va axloqiy didaktika tamoyillariga qaytishni targ'ib qiladi. Aleksander Pope, Nicolas Boileau, Gotthold Ephraim Lessing kabi adabiyotshunoslardan ushbu yo'nalishni tadqiq qilganlar. Hind adabiyotida neoklassitsizm mustaqil adabiy oqim sifatida shakllanmagan bo'lsa-da, XIX asrdan boshlab ingliz neoklassik adabiyotining shakliy va axloqiy tamoyillari ayrim hind yozuvchilar ijodida aks etgan. Bu ta'sir asosan diniy-axloqiy mazmundagi she'riyat, tarjima adabiyoti va ingliz tilida ijod qilgan ilk hind shoirlarda kuzatiladi. Raja Ram Mohan Roy, Henry Derozio, Toru Dutt, Makhanlal Chaturvedi kabi shoirlar ijodida ushbu yo'nalish elementlari kuzatiladi.

ନଵ୍ୟଥାର୍ଥବାଦ (Neorealizm). Realistik tasvir an'analariga asoslangan holda, ijtimoy-iqtisodiy muammolar, odamlarning ichki dunyosi, va

jamiyatdagi zulm, tengsizlik, umidsizlikni haqqoniy, biroq insonparvarlik ruhida tasvirlaydigan adabiy oqim neorealizm deb ataladi. XX asrning o‘rtalarida vujudga kelgan adabiy (va kinomatografiya) yo‘nalish bo‘lib, u realistik (haqiqatga yaqin) tasvirni yangicha, chuqurroq ijtimoiy va ruhiy nuqtayi nazar bilan berishga intiladi. Neorealizm odatda oddiy odamlar, kambag‘allik, urushdan keyingi jamiyat, va daxlsizlikka qarshi insoniy iztirob kabi mavzularni qamrab oladi. Vittorio De Sika, Roberto Rossellini kabi yozuvchilar ushbu yo‘nalishning shakkalanishiga o‘z hissalarini qo‘shishgan. Hind adabiyotida neorealizm 1940–70-yillar oralig‘ida shakllangan, real voqelik, ijtimoiy beqarorlik va ichki insoniy ziddiyatlarni ochiq va samimiylar tarzda ko‘rsatgan yo‘nalish bo‘lib, u asosan “Yangi hikoya” harakati orqali ifodalangan. Rajendra Yadav, Mohan Rakesh, Mannu Bhandari, Kamleshvar, Bhisham Sahni kabi yozuvchilar ushbu yo‘nalish ta’sirida ijod qilishgan.

Немесис (Nemesis). Adabiy atama sifatida kibr (g‘urur), yovuzlik yoki axloqiy xatolarning muqarrar jazosi yoki oqibatini bildiradi. Yunon mifologiyasida Nemesis —adolat va jazolovchi iloha bo‘lib, u haddan oshganlarni jazolaydi. Asardagi qahramonning gunohi, kibr yoki yomon xatti-harakatlari tufayli unga muqarrar jazo, halokat yoki qulash holati hisoblanadi. Umuman olganda, adabiyadolatning timsoli, u orqali asarlarda axloqiy xatolar, kibr yoki zolimlik muqarrar jazolanadi, va bu orqali o‘quvchida axloqiy uyg‘unlik hissi paydo bo‘ladi. Premchandning “Kurash maydoni” romanida badavlat zamindorlar o‘z zulmlarining oqibatida muvaffaqiyatsizlikka uchraydi; Mulk Raj Anandning “Hazar qilinganlar” romanida kastachilik tizimi jazolovchi

kuch sifatida o‘zini ko‘rsatadi; Kamleshvarning “Qancha Pokistonlar” romanida tarixiy zulm va bo‘linishlar axloqiy oqibatlar bilan tasvirlanadi. Bu asarlarda nemesis — jamiyatdagiadolatsizlikka axloqiy adabiy javob sifatida xizmat qiladi.

Њұнтақаң (Minimalizm) uslubi matndagi ortiqcha tafsilotlar, uzun tasvirlar va murakkab tuzilmalardan voz kechib, soddaligi va ixchamligi bilan ajralib turadi. Minimalizm o‘quvchiga asosiy fikrni taqdim etishga qaratilgan bo‘lib, ortiqcha gap-so‘zlardan qochadi va bu orqali asarning asosiy mazmunini yoritadi. Minimalist asarlar odatda qisqa bo‘lib, oz so‘zlarda ko‘p ma’no ifoda etishga intiladi. Har bir so‘z o‘z o‘rnida va ma’noli bo‘lishi kerak. Minimalizm murakkab metaforalar, uzun tasvirlar yoki ortiqcha uslubiy bezaklardan foydalanishdan qochadi. Buning o‘rniga, sodda va aniq ifodalar qo‘llaniladi. Minimalist asarlar ko‘pincha o‘quvchidan matnni tushunishda faol ishtirok etishni talab qiladi. Tafsilotlar kamligi sababli, o‘quvchi bo‘sh joylarni o‘zi to‘ldirishi kerak bo‘ladi. Minimalizm ko‘pincha oddiy sujetlar va cheklangan miqdordagi personajlar bilan ishlaydi. Bu, asosan, asosiy fikr va tuyg‘ularni ko‘rsatishga xizmat qiladi. Minimalist adabiyotda samimiylilik va rostgo‘ylik muhim o‘rin tutadi. Asar muallifning shaxsiy tajribalariga asoslangan bo‘lishi mumkin va bu o‘quvchiga yaqinlik hissini beradi. Heminguey minimalizm uslubining asoschilaridan biri sifatida tanilgan. Uning “Chol va dengiz” (“The Old Man and the Sea”) asari soddaligi va qisqaligi bilan ajralib turadi, lekin undagi tuyg‘ular va mavzular juda chuqur. Amerikalik yozuvchi Raymond Karver minimalistik hikoyalari bilan mashhur. Uning hikoyalari ko‘pincha oddiy odamlarning kundalik

hayotidan olingan bo‘lib, qisqa va aniq tasvirlar orqali chuqur ma’nolar ifoda etadi.

Hind adabiyotida minimalizm nisbatan yangi yondashuv bo‘lib, zamonaviy hind yozuvchilari tomonidan qo‘llanilmoqda. Hind adabiyotida “न्यूनतावाद” yoki minimalizm o‘quvchining tajribasini boyitadigan murakkab, o‘zaro bog‘langan hikoyalar yaratish uchun qo‘llaniladigan kuchli uslub hisoblanadi. Boshqa adabiy asarlarga murojaat qilish orqali, masalan, Nirmal Varma, Vinod Kumar Shukla, Krishna Sobti va Rajendra Yadav kabi mualliflar, o‘zaro bog‘liq matnlar tarmog‘ini yaratadilar, bu esa chuqurroq tushunish va talqin qilish imkonini beradi. Ushbu uslub nafaqat asarni boyitadi, balki uni kengroq adabiy va madaniy kontekstga joylashtiradi. Minimalizmning hind adabiyotidagi namunalaridan biri bu Nirmal Varma va uning qisqa hikoyalari bo‘lishi mumkin. Varma ortiqcha tafsilotlardan qochib, oddiy, lekin kuchli ifodalar orqali o‘quvchiga chuqur tuyg‘ularni yetkazishga intiladi. Minimalizm uslubi hind adabiyotiga yangi ko‘rinish va yondashuvlarni olib kirgan bo‘lib, bu o‘z navbatida adabiy jarayonlarning boyishi va xilma-xilligiga hissa qo‘shmoqda. Nirmal Varmaning “परिदे” (“Qushlar”) hikoyasidan olingan parchada ushbu usulning ta’sirini kuzatishimiz mumkin. “परिदे”da Nirmal Verma minimalistik til yordamida chuqur his-tuyg‘ular va ichki mulohazalarni ifodalaydi. Uning qisqa va ta’sirchan uslubi ortiqcha tavsiflar kiritmasdan lahzalarning mohiyatini qamrab oladi.

“वह खिड़की के पास खड़ी थी। बाहर बारिश हो रही थी। उसकी आँखों में अजीब सी उदासी थी।“

“*U deraza yonida turardi. Tashqarida yomg‘ir yog‘ayotgan edi. Uning ko‘zlarida g‘alati bir qayg‘u bor edi.*”

Til to‘g‘ridan-to‘g‘ri va aniq, ortiqcha tavsiflar yoki badiiy san’atlar bilan bezalgan til foydalanilmagan. E’tibor manzaraning asosiy elementlariga qaratilgan – qahramon, uning joylashuvi, ob-havo va uning hissiyoti. Uning soddaligiga qaramay, parcha chuqur hissiy kontekstni nazarda tutadi, bu esa o‘quvchiga o‘tmishni taxmin qilish va tasavvur qilish imkonini beradi.

त (T)

तुलनात्मक साहित्यशास्त्र Qiyosiy adabiyotshunoslik)

adabiyotshunoslikning bir sohasi bo‘lib milliy, til va madaniyatlar orasidagi adabiyotlarni qiyosiy tadqiq qilish orqali adabiy o‘ziga xosligini o‘rganish va ularning o‘xshashliklari hamda farqlarini aniqlashni maqsad qiladi. Adabiy asarlarni, uslublarni, janrlarni, va adabiy yo‘nalishlarni o‘zaro taqqoslash orqali adabiyotning turli shakllarini chuqurroq tushunishga harakat qiladi. Qiyosiy adabiyotshunoslikda adabiyotlar faqat bitta millat yoki til doirasida emas, balki butun dunyo adabiyotlari o‘rtasida taqqoslanadi. Shuningdek, bu soha adabiy asarlarning tarixiy, madaniy va falsafiy manbalar bilan birgalikda turli tillarda yozilgan asarlarning o‘zaro ta’sirini o‘rganadi.

तृतीय पुरुष में कथन yoki वह दृष्टिकोण से कथा-वाचन (Uchinchi shaxsli hikoya). Adabiyotshunoslikda hikoya “u” (yoki ular) shaklida, ya’ni hikoyachi voqealarning bevosita ishtirokchisi bo‘lmagan holda bayon etadigan uslub hisoblanadi. U o‘quvchiga asosiy qahramonlarning his-tuyg‘ulari, harakatlari va fikrlarini turli darajada ko‘rsatish imkonini beradi. Uchinchi shaxsli hikoya — bu hikoyachi “men” emas, balki “u”, “ular” shaklida gapirib, voqealarni chetdan kuzatayotgan shaxs sifatida bayon qiladi. Hikoyachi barcha qahramonlarning ichki dunyosini biladi, voqeilikning xohlagan joyiga aralasha oladi. Hikoya faqat bitta qahramonning nigohi orqali beriladi; boshqalarning ichki holati noaniq ravishda aks ettiriladi. Hikoyachi hech bir qahramonning ichki dunyosini bermaydi, faqat tashqi voqealarni tasvirlaydi. Jahon adabiyotida ushbu bayon uslubing nodir manbalari E. Heminguey, L. Tolstoy hamda J.K.Rovling qalamiga mansub asarlarda uchraydi. Hind adabiyotida uchinchi shaxsli hikoya keng tarqalgan bayon uslublaridan biri hisoblanadi. Bu uslub orqali yozuvchilar qahramonlarning ichki dunyosini chuqur ko‘rsatish, ijtimoiy voqelikni keng tasvirlash va voqealarning turli tomonlarini obyektiv berish imkoniga ega bo‘ladilar. Premchand, Bhisham Sahni, Kamleshvar, Amrita Pritam kabi yozuvchilar uchinchi shaxsli hikoya qilish uslubidan keng foydalanishgan.

Д (D)

दृष्टिकोण सीमांकन yoki दृष्टिकेंद्रण (Fokalizatsiya). Hikoyada voqealar va axborot kimning nigohi yoki tafakkuridan yoki nuqtai nazaridan berilayotganini, voqealar hikoya ichida qaysi personajning idroki,

hissiyoti yoki bilish doirasi orqali taqdim etilganligini bildiradi. Ya’ni, “hikoyani kim ko‘ryapti?”, degan savolga javob beradi. Bu hikoyachi (hikoya qiluvchi) bilan fokalizator (ko‘rvuchi nuqtai nazar) bir odam bo‘lishi ham, har xil bo‘lishi ham mumkin. Bu tushuncha Jerald Jenet tomonidan tadqiq qilingan bo‘lib, hikoya qiluvchi va ko‘rvuchi nuqtai nazarni ajratib ko‘rsatadi. Jenet fikriga ko‘ra, Nol fokalizatsiya hikoya qiluvchi hamma narsani biladi, asosan, muallif nazarda tutiladi. Har bir personajning ichki dunyosini ko‘ra oladi. Ichki fokalizatsiya hikoya bitta yoki bir nechta personajning cheklangan bilish doirasi orqali yuritiladi (“men” yoki “u” nuqtai nazari). Tashqi fokalizatsiya hikoya qiluvchi faqat tashqi harakatlarni ko‘radi, personajlarning ichki dunyosi noma’lum. Shuningdek, hikoyadagi axborot va voqealarni kim ko‘rayapti, kim anglayapti degan savollarga javob beradi. Bu adabiy asarning bilim doirasi, hissiy chuqurligi va o‘quvchiga ta’sir darajasini belgilaydi. Jahaon adabiyotida Charlotte Brontening “Jane Eyr” romanida voqeilik (ichki fokalizatsiya) Janening nuqtai Nazari orqali beriladi; Tolstoyning “Anna Karenina” romanida (nol fokalizatsiya) muallif har bir personajning ichki fikrini biladi; Heminguvayning “Qotillar”ida (tashqi fokalizatsiya) faqat tashqi harakatlar tasvirlanadi, ichki dunyo mavjud emasligi aks ettiriladi. Hindiy adabiyotda Premchandning “Kafan” ida (nol fokalizatsiya) har ikki personajning fikrlari beriladi; Nirmal Varmaning “Qushlar”ida (ichki fokalizatsiya) hikoya qahramonning ruhiy holati orqali beriladi; Mannu Bhandarining “Bu haqiqat” ida ichki Qahramon o‘z nigohidan o‘ziga tanqidiy qaraydi (ichki fokalizatsiya) nuqtai nazarlari beriladi.

П (P)

परायापन yoki **परायापन** की भावना (Begonalashuv).

Adabiyotshunoslikda, asosan, odamlarning jamiyat yoki o'zlariga nisbatan begona yoki ajralib qolgan holatini tasvirlashni anglatadi. Begonalashuv tushunchasi ko'pincha adabiy asarlarda ijtimoiy, siyosiy yoki iqtisodiy tizimlar tomonidan shaxsning o'zligini yo'qotishi yoki o'ziga nisbatan befarq bo'lishi orqali ifodalanadi. Adabiyotda bu tushuncha, insonning o'z hayoti, hissiyotlari va maqsadlari bilan aloqasi yo'qolganini ko'rsatadigan badiiy vosita sifatida foydalaniladi. Begonalashuv atamasi Karl Marksning g'oyalaridan kelib chiqqan bo'lib, u insonlarning ishlab chiqarish tizimi va jamiyat tomonidan ajratilishiga qarshi fikr bildirgan. Uning g'oyalari ham hindiy adabiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Hindiy adabiyotda ushbu tushunchadan Muktibodh, Nirmal Varma, Saodat Xasan Manto kabi yozuvchilar asarlarida barakali foydalanishgan. Bu yozuvchilarning asarlarida begonalashuv, insonning o'z hayoti, jamiyat va boshqalardan ajralishi, shuningdek, ijtimoiy tengsizlik vaadolatsizlikka qarshi turgan o'zgarishlar tasvirlanadi. Misol uchun Nirmal Varma "Bir kunlik mehmon" ("एक दिन महमान") nomli hikoyasi mamlakat parchalanib bo'lganligi ancha bo'lgan, hind jamiyatida shaharlashuv keskin rivojlangan jarayondagi oilalarning tasviri aks ettiriladi, hikoyada yerning qayerida bo'lmasin, ajrashgan oilalar qanday yashayotganini, ajrashish (tahlil jarayonida begonalashgan shaxs misolida) ning oqibatlari mushohada qilina boshlaydi

пӯрвдшы yoki әтіт дұшы (O‘tmishga qaytish yoki orqaga nazar tashlash). Ushbu badiiy qurilma – anaxroniya (hikoya vaqt tartibining buzilishi; voqealar o‘z vaqtida emas, balki orqaga yoki oldinga siljib bayon qilinishi)ning bir shakli bo‘lib, unda asardagi voqealarning ayrimlari voqelikning keyingi qismi bayon qilinganidan keyin orqaga qaytish, eslash, yodga olish orqali tasvirlanishi hisoblanadi. Ushbu istilohni orqaga nazar tashlash (“analepsis”) yoki o‘tmishga qaytish (“flashback”) deb nomlash mumkin. Ma’lumki, ushbu badiiy uslub sujet davomida o‘tgan zamondagi muhim hodisalar, voqealar yoki xotiralar asosida keltiriladi hamda ular hikoyaning hozirgi voqealariga bog‘liq bo‘ladi. Ushbu badiiy qurilmadan foydalanishda yozuvchining shaxsiy maqsadlari bo‘lishi mumkin. Misol uchun Nirmal Varma zamonaviy inson hayotining parchalanishi ochib berish maqsadida foydalangan: “मैं आपकी बात मानने के लिए तैयार नहीं हूँ,” वकील साहब जरा गर्म हो गए, “कौन स्त्री अपनी मरजी से उस आदमी को छोड़कर चली जाएगी, जिसे वह सचमुच सच्चे दिल से चाहती है। हाँ, अगर वह सनकी या पगाल हो तो बात दूसरी है।” (“Men sizning fikringizga qo ‘shilishga tayyor emasman”, advokat janoblari biroz g‘azablanib dedi, ”- qaysi ayol chin yurakdan sevgan odamni o‘z xohishi bilan tashlab ketadi? Mumkinki, agar u telba yoki aqldan ozgan bo ‘lsa, unda bu boshqa masala.)

“जिस लड़की को मैं जानता था, वह पागल या सनकी कुछ भी न थी, लेकिन फिर भी...।” रोहतगी साहब सहसा चुप हो गए। उनकी ऊँखों में अवसाद की हल्की-सी छाया सिमट आई।” (“Men tanigan qiz na telba edi, na alqdan

ozgan, lekin baribir... ”— Rohtagi janob birdan jimib qoldi. Uning ko‘zlarida qayg‘uning yengil soyasi paydo bo‘ldi.)

परिश्रमात्मक साहित्य (Ergodik adabiyot) bu o‘qish, tushunish yoki shug‘ullanish uchun muhim kuch talab qiladigan, ko‘pincha o‘quvchidan faol ishtirokni talab qiladigan adabiyot asarlari hisoblanadi. Bu atama Espen J. Aarseth tomonidan 1997- yilda “Cybertext: Perspectives on Ergodic Literature” (“Киберматн: Ergodik adabiyot bo‘yicha istiqbollar”) kitobida foydalanilgan. “Ergodik” so‘zi yunoncha “ergon” (ish) va “hodos” (yo‘l) so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, o‘quvchi matnni o‘rganish uchun ishlashi kerakligini ta’kidlanadi. Ergodik adabiyot XX asr oxirida tan olina boshladi, garchi o‘quvchi ishtirokini talab qiladigan eksperimental adabiyot shakllari ancha oldinroq mavjud bo‘lgan. Lourens Sternning “Tristram Shandi” (18-asr) va Jeyms Joysning “Finnegans Vake” (1939) kabi asarlar ergodik adabiyot xususiyatlarini namoyish etadi. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida, raqamli media va gipermatn hikoyalari paydo bo‘lishi bilan, ergodik adabiyot yangi vosita va kengroq auditoriyaga ega bo‘ldi. Hind adabiyotida ergodik adabiyot keng tarqalmagan, lekin ba’zi hollarda hind yozuvchilari o‘quvchilardan faol ishtirokni talab qiladigan hikoya qilish shakllar bilan tajriba o‘tkazganlar. Ageyning “Shekhar: bir hayo” (“शेखरः एक जीवनी”) romanida avtobiografiya va fantastikaning aralashmasi bo‘lib, ko‘pincha ong oqimi, parchalangan hikoya qilish va turli nuqtai nazarlardan foydalanib, bosh qahramonning hayoti va tajribalarini faol o‘quvchi tomonidan tushunishga undaydi. Raghuvir Sahayning “Odamlar unutdi” (“लोग भूल

गए हैं”) nomli she’rlar to‘plami ko‘pincha an’anaviy shakllarga qarshi chiqib, o‘quvchilardan matn bilan faol ishtirok etishni talab qiladi va chuqur ma’nolar va bog‘lanishlarni ochib beradi. Ageyning “Shekhar: bir hayot” (“शेखर: एक जीवनी”) romani avtobiografik roman bo‘lib, unda haqiqiy hayot tajribalari fantastik elementlar bilan aralashgan. Hikoya qilish uslubi ham bir tekisda emas, parchalangan va ko‘plab nuqtai nazarlardan foydalanadi, bu esa o‘quvchini bosh qahramonning hayotiy hikoyasini qayta tiklashga faol ishtirok etishga undaydi.

विचारों का प्रवाह कभी तेज़, कभी धीमा होता है। घटनाएँ एक-दूसरे में उलझी हुई हैं, मानो यादों की गुर्थी सुलझाने का प्रयास कर रहे हों। पाठक को विचारों और घटनाओं के इस प्रवाह को समझने के लिए स्वयं प्रयास करना पड़ता है।

“Fikrlarning oqimi ba’zida tez, ba’zida sekin bo‘ladi. Voqealar bir-biriga bog‘langan, go‘yo xotiralarni yechish uchun urinish kabi. O‘quvchi bu fikrlar va voqealar oqimini tushunish uchun o‘zi harakat qilishi kerak.”

Ergodik adabiyot o‘quvchilardan matnni tushunish uchun katta harakat talab qiladi. Garchi hind adabiyotida bu usul G‘arb adabiyotiga qaraganda nisbatan kam tanilgan bo‘lsa-da, Ageya kabi yozuvchilar shakllar bilan tajriba o‘tkazib, o‘quvchilardan faol ishtirokni talab qilgan. Ageya ergodik elementlardan foydalangan holda, parchalangan hikoya qilish usuli, ong oqimi va ko‘p nuqtai nazarlardan foydalanib, murakkab va qiziqarli mutolaa tajribasini yaratadi.

पत्रात्मक साहित्य (Epistolyar) atamasi maktublar, kundalik yozuvlar yoki boshqa yozishmalardan iborat adabiy janrni anglatadi. Ushbu janr

muallifga hikoyani qahramonlarning shaxsiy nuqtai nazarlari orqali taqdim etishga imkon beradi, ko‘pincha ularning fikrlari, hissiyotlari va munosabatlari haqida yaqin ma’lumotlar beradi. Epistolyar janri asrlar davomida adabiyotda mavjud bo‘lib, birinchilardan bo‘lib, qadimgi yunon va rim asarlarida uchragan. Biroq, ayniqsa XVII, XVIII asrlarda ommalashdi. Ba’zi eng mashhur erta misollar qatoriga Samuel Richardsonning “Pamela” (1740) va “Klarisa” (1748), shuningdek, Jan-Jak Russooning “Juliya, yoki yangi Eloiza” (1761) asarlari kiradi. Ushbu janr mualliflarga murakkab qahramon rivojlanishlarini va murakkab syujetlarni maktublar almashinuvi orqali o‘rganishga imkon berdi. Bir qancha hind yozuvchilari epistolyar janridan foydalanib, kitobxonga o‘z hikoyalarini noyob va qiziqarli tarzda yetkazishgan. Mashhur hind yozuvchisi Bhisham Sahni o‘z asarlarida epistolyar janridan foydalanib, o‘z davrining shaxsiy va ijtimoiy muammolarini chuqurroq ko‘rsatgan. Uning maktublar va shaxsiy yozishmalar orqali insoniy munosabatlar va ijtimoiy dinamikani aks ettirish qobiliyati juda yaxshi aks etgan. Sahniyning “चीफ की दावत” (“Raisning bayrami”) hikoyasida syujet qisman maktublar va taklifnomalar orqali qurilgan bo‘lib, qahramonning ijtimoiy doirasi va ichki ziddiyatlarini ko‘rsatadi. Hikoya yuqori martabali amaldordan kelgan taklifnomadan boshlanadi, bu esa qahramonlar orasida hodisalar zanjiri va shaxsiy mulohazalarni keltirib chiqaradi. Almashilgan maktublar va eslatmalar ularning haqiqiy his-tuyg‘ularini, ijtimoiy bosimlarni va jamoatchilik oldida saqlanadigan niqobni ochib beradi. Ushbu janr adabiyotda kuchli va ko‘p qirrali hikoya qilish texnika bo‘lib qolmoqda, chuqur qahramon izlanishi va haqiqiy hikoya qilish imkonini beradi. Bhisham Sahni kabi

hind yozuvchilari tomonidan ushbu formaning qo‘llanilishi uning shaxsiy va ijtimoiy mavzularni etkazishdagi davomiy ahamiyatini va samaradorligini ko‘rsatadi.

प्रथम पुरुष में कथा-वाचन (Birinchi shaxsli hikoya qilish uslubi). Bu hikoyada voqealar va kechinmalarni asar ichidagi “men” degan qahramonning ko‘zları bilan ko‘rish, uning hissiyotlari, fikrlari va tajribalari orqali hikoya qilish usuli hisoblanadi. Badiiy asarda hikoya bevosita birinchi shaxs (“men”) tomonidan aytiladigan uslub bo‘lib, o‘quvchi voqealarni bir qahramonning yoki muallifga o‘xshash ovozning ichki nigohi orqali kuzatadi. Jahon adabiyotida Fyodor Dostoyevsky, Charlotte Bronte, J.D. Salinger kabi yozuvchilar ushbu bayon uslubidan barakali ijod qilishgan. Ushbu bayon uslubi subektiv, hissiy va chuqur psixologik tafsilotlar bilan boyitilganligi sababli, ob’ektivlikdan uzoqlashish, boshqa personajlar haqida faqat cheklangan ma’lumot bo‘lishi, nuqtai nazarlarning ishonchli yoki noxolis bo‘lishi mumkinligi kuzatiladi. Hind yozuvchilaridan Nirmal Varma, Mannu Bhandari, Kamleshvar kabi yozuvchilar birinchi shaxsli hikoya qilish uslubidan barakali foydalanishgan. Nirmal Varmaning “Zulmatda” nomli hikoyasi qizcha orqali hikoya qilinadi:

किन्तु उस दिन मेरे लिए उस पुस्तक का कोई महत्व नहीं था। उसे हाथ में
लिए मैं देर तक अँधेरे में खड़ा रहा- अपने घर के ऊपरवाले कमरे की ओर
देखता रहा।

Ammo o‘sha kunlari bu kitobning men uchun ahamiyati yo‘q edi. Uni qo‘limda ushlab, uyning yuqori qavatidagi xonaga qarab, qorong‘uda uzoq tik turdim.

प्रतिस्थापन yoki विरोधी स्थापना (antiteza yoki qarshilantirish).

Adabiyotshunoslikda — bu ikki qarama-qarshi fikr, obraz, tushuncha yoki hodisani yonma-yon qo‘yish orqali ularning ziddiyatini kuchaytirish san’ati antiteza yoki qarshilantirish deb ataladi. Hind adabiyotida qarama-qarshi tushunchalar, obrazlar va fikrlarni yonma-yon qo‘yish orqali estetik, falsafiy yoki dramatik ta’sir yaratish maqsadida mumtoz adabiyotdan tortib zamonaviy adabiyotgacha bo‘lgan yozuvchilar barakali ushbu badiiy san’at turidan foydalanishgan. Mumtoz adabiyot vakillari Kalidas “Kumarasambhava”, “Abhijnana Shakuntalam” kabi asarlarida tabiat va inson, muhabbat va majburiyat, go‘zallik va vazifa o‘rtasidagi ziddiyatlarni kuchli estetik obrazlar orqali ifodalagan. Bhakti harakatining yorqin vakili Kabirning doxiyona do‘stona she’rlarida dunyoviy va ilohiy, manzil va yo‘l, ishq va bekorlik o‘rtasida qarama-qarshiliklar ko‘p uchraydi. Chhayavad vakili Jaishankar Prasadning romantik-falsafiy ruhdagi she’rlarida tashqi va ichki dunyo, orzu va haqiqat, yolg‘izlik va jamiyat qarama-qarshiligi orqali qarshilantirish foydalanilgan. Suryakant Tripathi Niralaning ham she’rlarida jamiyatdagiadolatsizlik va ruhiy poklik, haq va nohaqlikni tuyg‘ular darajasida qarama-qarshi qo‘yiladi. Nirmal Varmaning hikoya va romanlarida tashqi sukunat va ichki bo‘shliq, o‘tmish va hozir, xotira va haqiqat o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar qarshilantirishlar orqali berilgan. Masalan, “Tafavut” hikoyasida qahramon yigit va tug‘ruqxona ishlaydigan tibbiyot og‘asi bilan kechgan ingliz tilidagi diologida qarshilantirishga yaqqol misol berilgan bo‘lib, unda erkak (farzad paydo bo‘lishi uchun erkak va ayol munosabatidagi erkak)

hamda erkak (o‘z qilmishlari oldida javobgarlikni bo‘yniga oladigan shaxsni qarama-qarshi qo‘yadi:

- सो... यू आर दि मैन—उसने अपनी भाषा छोड़कर अंग्रेजी में कहा।
- क्या मतलब?
- कुछ नहीं... वह फिर अपनी भाषा पर उत्तर आया था।
- Demak... siz erkaksiz, - dedi u ingliz tilida, o‘z tilini qo ‘yib.
- Nimani nazarda tutyapsiz?
- Hech narsa... U qaytib o‘z tilida javob berdi.

П्रтиквад (**Simvolizm, ramziylik**) XIX asr oxiri XX asr boshlarida adabiyot va san’atda paydo bo‘lib, san’atning barcha turlarida keng tarqalgan va chuqur ma’nolarni ifodalashga qaratilgan yo‘nalish hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda ijodkorlar va rassomlar oddiy narsalar, hodisalar va belgilarga chuqur va ko‘p qirrali ma’nolar yuklaydilar. Bu uslub yordamida asarlar ichki hissiyotlar, ong va ruhiy tajribalarni tasvirlashga intiladi.

Simvolizmning adabiy va badiiy xususiyatlari:

1. **Ramzlar va belgilardan foydalanish:** Oddiy narsalar va hodisalar chuqur ma’nolar ifodalovchi ramzlar sifatida tasvirlanadi. Har bir ramz o‘zida ko‘p qirrali ma’nolarni mujassam etadi va asarning mazmunini boyitadi.
2. **Mavhumlik va metaforik ifoda (ifodalash):** Simvolizmda mavhumlik va metaforik ifodalar orqali chuqur hissiyotlar va tushunchalar yetkaziladi. Bu uslub o‘quvchini o‘z fikr va tasavvurlari yordamida asarni tushunishga chorlaydi.

3. Ichki dunyo va ruhiy holat: Simvolistlar asarlarida inson ruhiy holati va ichki dunyosini olib berishga harakat qiladilar. Bu orqali kitobxon asarning chuqur mazmunini his qilishi mumkin.

Hind adabiyotshunosi Acharya Shuklaning fikriga ko‘ra, razmlar asosan ikkita turga bo‘linadi. Birinchisi hissiyotlarni uyg‘otishga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchisi esa fikrlarni (intelekt) uyg‘otishga qaratilgan. Misol uchun: oy- yomshoqlik, nafislik yoki poklik ramzi, ummon- viqor, g‘alaba, muvozanat, osmon – cheksizlik, tong yulduzi muhabbat ramzi hisoblanadi. E’tiborga molikki, adabiyot rivojlanganligi va o‘zgargani sari ramzlarning ma’nolari ham chuqurlasha boshlaydi. Simvolizm o‘zining dastlabki ma’nosida shaxs, sub’ekt, hodisa yoki harakatga e’tibor beradigan narsa va belgilar bilan chegaralangan holda foydalaniladi. Ammo uning mazmuni asta-sekin kengayib borishi jarayonida arzimas narsalardan tortib, to‘xtash va ketishni bildiruvchi qizil va yashil ranglardan tortib, xalqlar bayroqlari va turli diniy marosim asboblarigacha ramziylashtirishni o‘z ichiga ola boshladi. Simvolizm asarlarida har bir detal va ifoda o‘ziga xos ma’noga ega bo‘lib, ular orqali muallif o‘zining falsafiy qarashlari, ruhiy tajribalari va ichki kechinmalarini yetkazadi. Bu uslub orqali yaratilgan asarlar o‘zining chuqur va boy mazmuni bilan ajralib turadi.

прайгвад (Eksperimentalizm) yozuvchi va shoirlarning an’anaviy adabiy uslublar va janrlardan chetlanib, yangi, noodatiy va innovatsion usullar bilan ijod qilishga intilishilarini o‘z ichiga olgan norealistik oqim hisoblanadi. Eksperimentalizm asosan XX asr boshlarida, modernizm va postmodernizm davrlarida shakllanib rivojlanagan,

ammo aksariyat adabiyotshunoslarning fikriga qaraganda, uning ildizlari bundan oldingi davrlarda ham mavjud bo‘lgan. Bu yo‘nalish adabiyotda cheklovslarsiz, ozod ijod qilishga, o‘qish tajribasini yangi darajaga ko‘tarishga qaratilgan. Eksperimental yozuvchilar asarlarining tuzilishi, uslubi va shakli bilan tajriba olib borishadi. Bu an’anaviy syujet, obrazlar, xarakterlar yoki hatto tilni buzishga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Masalan, Virginiya Vulfning "Dallovay xonim" yoki Jeyms Joysning "Uliss" romanlari hamda Samuel Bekketning "Godotni kutib" asari bunga misol bo‘la oladi. Eksperimental adabiyotda til bilan o‘ynash, yangi so‘zlar va iboralarni yaratish, sintaksis va grammatikani buzish keng qo‘llaniladi. Shuningdek, tilning fonetik, semantik va stilistik jihatlarini tadqiq qilish ham kuzatiladi. Hikoya qilishning yangi usullarini izlash eksperimental adabiyotning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Bu ko‘pincha fragmentarizm, ko‘plab nuqtai nazarlar, ichki monologlar, vaqtning sinishi, quyilishi va boshqa noan’anaviy hikoya usullarini qo‘llash orqali amalga oshiriladi. Eksperimental asarlar o‘quvchidan faol ishtirokni talab qiladi. Ular ko‘pincha murakkab va ko‘p qatlamlı bo‘lib, o‘quvchini faol ravishda ma’noni qidirishga, talqin qilishga va shaxsiy xulosalar chiqarishga undaydi. Hind adabiyotida ham eksperimentalizmning ta’siri sezilarli. Yozuvchilar yangi mavzular, uslublar va til tajribalari bilan hind adabiyotini boyitganlar. Freydning psixoanalizidan ta’sirlangan hind eksperimental adabiyotning eng yorqin vakili Ageyning hikoyalari aynan shu muktabga mansub uslublar - ichki monologlar va tushlar tasviriga boydir. Ageyning keyingi hikoyalari yozuvchining dunyoqarashi evolyusiyasi, uning dunyodan ajralib qolish kabi

modernistik konsepsialariga qiziqishi va boshqalarni aks ettiradi. Agey falsafasiga ko‘ra madaniyat evolyutsion jarayon, u zamonaviy dunyo “teng madaniyatlarning ko‘pligi davri” deya fikr bildirib, turli xalqlar madaniyati o‘rtasidagi muloqot va ularning bir-biriga nisbatan ochiqlik davri ekanligini tushuntirishga uringan. Hind tanqidchilari tahlilarida, Agey ijodi - ichki monolog, yozuvchining dunyoqarashi evolutsiyasi, uning dunyodan ajralib qolishning modernistik konsepsialariga qiziqishi va boshqa shu kabilarni aks ettiradi. Nirmal Varma hind adabiyotining modernistik va eksperimental yo‘nalishida ijod qilgan yozuvchilardan biri bo‘lib, uning hikoyalari va romanlari an’anaviy adabiy uslublardan chetlanib, yangi badiiy tajribalarni aks ettiradi. Yana boshqa mashhur hind yozuvchisi Jit Thayilning "Narkopolis" romani Hind adabiyotida yangi uslubiy tajribalarni aks ettiruvchi asarlardan biridir. Adabiyotda eksperimentalizm yozuvchi va o‘quvchiga yangi, noodatiy tajribalarni taqdim etish maqsadida adabiy janr va uslublarni qayta ko‘rib chiqadi.

пратимавад (**Imajizm**) adabiyotda imajizm (inglizcha "Imagism") — XX asr boshlarida paydo bo‘lgan poetik yo‘nalish bo‘lib, uning asosiy maqsadi she’riyatda obraz va tasvirni aniqlik, qisqalik va raxonlik bilan ifoda qilish oqimi hisoblanadi. Imajizm har qanday ortiqcha ma’lumot va bezaklardan voz kechib, she’riy tilning tozaligini va kuchini ta’kidlashga intiladi. Imajistlar she’riyatda aniq va tiniq tasvirlarni ifodalashga intiladilar. Ular ortiqcha metaforalar, bezaklar va ma’nosiz ifodalardan qochib, faqatgina mohiyatni aks ettiradi. Imajizm she’rlarida til sodda va tabiiy bo‘lishi kerak. Tilning oddiy va aniq bo‘lishi, o‘quvchiga obrazni tez va ravshan anglash imkonini beradi.

Imajistlar umumiy va mavhum so‘zlardan ko‘ra, konkret detallar va tasvirlarga urg‘u beradilar. Har bir detal she’riy ifodani kuchaytiradi va unga haqiqiylik beradi. She’r qisqa va mazmunli bo‘lishi kerak. Imajistlar an’anaviy ritm va qofiyalardan voz kechib, tabiiy nutq ohangini tanlaydilar. Bu uslub she’riy ifodaning tabiiyligini oshiradi. Jahon adabiyotida Ezra Pound Imajizm harakatining asoschilaridan biri bo‘lib, uning "Metrobekatida" nomli she’ri imajizmning klassik namunalaridan biri hisoblanadi. Imajizm she’riyatning yangi yo‘nalishini belgilab, ko‘plab yozuvchilar va shoirlarga ilhom manbai bo‘ldi. Bu harakat she’riyatda ortiqcha bezaklardan qochish va aniq, ravon tasvirlarga intilish orqali she’riyatning kuchini oshirdi. Imajizm nafaqat ingliz she’riyatiga, balki boshqa milliy adabiyotlarga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Hindiy adabiyotda imajizm aniq va mustaqil bir harakat sifatida shakllanmagan bo‘lsa-da, ba’zi yozuvchilar va shoirlar o‘z asarlarida imajizm elementlarini qo‘llaganlar. Ushbu elementlar asosan tasvirning aniqligi, qisqalik va oddiylikka urg‘u beradi. Suryakant Tripathi Nirala o‘zining qisqa va kuchli tasvirlari bilan tanilgan. U o‘z she’rlarida imajizmga xos bo‘lgan aniq va ravshan tasvirlarni ko‘p foydalanilgan. Mahadevi Verma o‘z asarlarida tabiat va hissiyotlarni aniq va tiniq tasvirlar orqali ifodalagan. Uning she’rlari sodda va kuchli tasvirlarga boy. Sachidananda Vatsyayan Agyey o‘z she’riyatida imajizmning asosiy tamoyillariga amal qilib, qisqa va aniq tasvirlarga urg‘u bergen. Uning asarlari o‘zining ravshan va tabiiy tasvirlari bilan ajralib turadi.

Sumitranandan Pantning she’rlari ham tabiatni aniq va oddiy tasvirlar orqali ifodalash bilan mashhur. U ko‘pincha imajizm uslubida ijod

qilib, she’riyatda ortiqcha bezaklardan voz kechgan. Ramdhari Singh Dinkar o‘zining qisqa va mazmunli tasvirlari bilan tanilgan. Uning she’rlari sodda, lekin kuchli va ta’sirli bo‘lib, imajizm uslubiga mos keladi. Hindiy adabiyotda imajizm mustaqil harakat sifatida rivojlanmagan bo‘lsa-da, ba’zi yozuvchilar va shoirlar o‘z asarlarida imajizm elementlarini qo‘llaganlar. Ularning asarlarida aniq va qisqa tasvirlar, sodda va tabiiy til, va ortiqcha bezaklardan qochish kabi xususiyatlar ko‘zga tashlanadi. Bu shoir va yozuvchilar o‘z ijodiy uslublari orqali hind adabiyotida imajizmga xos bo‘lgan tamoyillarni amalga oshirganlar. Imajizm uslubida yozilgan Agyeyning “Daryodagi orollar” nomli she’rida imajizm elementlarini kuzatish mumkin:

तुम्हारे तन की गंध से भरी हवा
 मैं पी रहा हूँ
 कि जैसे
 तुम्हें पी रहा हूँ
 पर तुम दूर हो
 दूर हो कि नदी के द्वीप हो
 जिसे मैं एक पारदर्शी नाव पर बैठ
 पार कर रहा हूँ
 कि जब नाव की धारा के साथ
 स्मृति भी एक-एक कर तिरती जाती है।
 नदी के द्वीप हो तुम
 और मैं उस पार हूँ
 जहाँ मेरे चिह्न भी मुझ से छूट गये हैं।

Пробо́дн (Epifaniya) qahramon uchun to‘satdan anglash yoki idrok qilish lahzasi bo‘lib, bu holat uning dunyoqarashi yoki holati tubdan o‘zgaradi. Bu hodisa odatda asarda kutilmagan yoki dramatik bir burilishda yuz beradi va qahramonning ichki rivojlanishiga yoki hikoyaning asosiy mazmuniga katta ta’sir ko‘rsatadi. “Epifaniya” so‘zi

yunon tilidagi "epiphaneia" so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, "ko‘rinadigan" yoki "oshkor bo‘ladigan" degan ma’noni anglatadi. Adabiyotda bu tushuncha odatda qahramonning ichki yoki tashqi muhitidagi muhim bir tafsilotni, haqiqatni yoki hodisani to‘satdan anglab yetishini bildiradi. Bu lahzalar odatda qisqa va tez bo‘lib, o‘quvchining e’tiborini tortadigan, chuqur hissiy ta’sirga ega bo‘ladi. Jeyms Joysning “Arabiston” hikoyasida, yosh qahramonning anglash lahzasi keltirilgan bo‘lib, u o‘zining romantik xayollarining haqiqatdan yiroq ekanligini tushunadi. Lev Tolstoyning “Anna Karenina”: romanida Levin qahramonining oxirgi boblarda xudoni anglash va hayotning ma’nosini topish lahzasi ham epifaniyaning yaqqol misoli husoblanadi. Rabindranath Tagor, Munshi Premchand, R.K. Narayan, Nirmal Varma, Arundhati Roy, Vikram Seth kabi ijodkorlar ham ushbu usuldan foydalanishgan. Munshi Premchandning “गोदान” (“Qurbanlik”) romanida bosh qahramon Hori Mahato roman oxirida epifaniyani (प्रबोधन) boshdan kechiradi. U butun hayoti davomida qiyinchiliklar va muammolar bilan kurashganidan so‘ng, sa’y-harakatlarining behudaligini va o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitining qattiq haqiqatlarini anglaydi.

जब होरी अपनी मृत्युशय्या पर लेटा हुआ था, तब उसे यह अहसास हुआ कि उसकी सारी ज़िंदगी की मेहनत और संघर्ष वास्तव में व्यर्थ था। उसने देखा कि उसकी सारी कोशिशें एक ऐसे समाज में थीं, जहाँ गरीब का कोई मूल्य नहीं था। उसे यह प्रबोधन हुआ कि असली सुख और शांति बाहरी वस्तुओं में नहीं, बल्कि आंतरिक संतोष में है।

“Hori o ‘zining o ‘lim to ‘shagida yotganida, hayoti davomida qilgan barcha mehnati va kurashi behuda ekanligini tushundi. U butun sa ‘y-harakatlari kambag ‘alning hech qanday qiymati bo ‘lmagan jamiyatda amalga oshirilganini anglatdi. U haqiqiy baxt va tinchlik tashqi narsalarda emas, balki ichki qoniqishdaligini anglab yetdi.”

Butun umr davomida ijtimoiy hurmat va iqtisodiy barqarorlikka erishishga intilganidan so‘ng, u bu tashqi maqsadlar uning ijtimoiy kontekstida aslida ma’nosiz ekanligini tushunadi. Ushbu epifaniya Horining hayotga qarashini o‘zgartiradi. Premchand kabi mualliflar epifaniya lahzalari orqali chuqur falsafiy tushunchalarni yetkazishlari va ijtimoiy muammolarni tanqid qilishlari, hikoyani boyitishlari va inson holatini chuqurroq tahlil qilishlari mumkin.

प्रस्तावना, भूमिका योकि प्रोलॉग (Prolog). Adabiy asarning boshida joylashgan kirish qismi bo‘lib, u asar voqealar, muhit, personajlar yoki asosiy mavzu haqida avvaldan ma’lumot berish vazifasini bajaradi. Prolog o‘quvchini asarga tayyorlaydi va ba’zan yozuvchining bevosita murojaati sifatida xizmat qiladi. Shekspirning “Romeo and Juliet” targediyasida prolog she’riy shaklda yozilgan bo‘lib, “ikki oila” o‘rtasidagi nizoni va yosh sevishganlarning fojiasini oldindan aytib beradi. Qadimgi hind adabiyotda (Ramayana, Mahabharata) asosan asar boshida shoirning maqsadi, voqealar joyi va zamoni haqida so‘z boradi — bu an’anaviy prolog namunasi hisoblanadi. Masalan, Kalidas o‘z epik asarlarining boshida “नन्दी श्लोक” (ya’ni: sanskrit adabiyotida, ayniqsa mahakavya (epik doston) va drama asarlarining boshida yoziladigan duo, sajda yoki iltijo ohangidagi she’riy kirish bo‘lagi bo‘lib, u asardan oldin xudoga, murabbiyga yoki ilhomga

bag‘ishlanadi) keltiriladi. Zamonaviy hind adabiyotda (XX–XXI asrlar adabiyoti) prolog ko‘pincha nasriy asarlarida uchraydi. Ular psixologik kirish, voqealar oldidan esdalik yoki birinchi shaxs ichki monologi sifatida yoziladi. Mulk Raj Anand, Salman Rushdi, Arundhati Roy, Nirmal Varma kabi yozuvchilar asarlarida ushbu badiiy vositani uchratish mumkin.

пра^кти^чка^вад (Naturalizm) XIX asr oxiri va XX asr boshlarida rivojlangan adabiy harakat bo‘lib, realizmning bir turi hisoblanadi. Naturalizm hayotni ilmiy jihatdan aniq va ob'ektiv tasvirlashni maqsad qiladi. Bu harakat ilk marotoba fransuz romannavisi Emil Zola tomonidan asos solingan va keyinchalik boshqa adabiyotlarda ham keng tarqalgan. Bu uslub ko‘pincha o‘z hayotlari atrof-muhit, ijtimoiy va iqtisodiy kuchlar tomonidan boshqariladigan qahramonlarni tasvirlaydi.

Qahramonlarning taqdiri nasl, atrof-muhit va ijtimoiy sharoitlar tomonidan belgilangan bo‘ladi. Hayotning qattiq haqiqatlari ko‘pincha pessimist ohangda tasvirlanadi. Kundalik hayotning batafsil va ko‘pincha aniq tasvirlaridan foydalanadi. Ko‘pincha kambag‘al va ijtimoiy chetlanmagan odamlarning hayotini o‘rganadi. Naturalizm realizmning kengaygan shakli sifatida rivojlangan bo‘lib, o‘sha davrda ilmiy yutuqlar va ijtimoiy nazariyalar, masalan, Charlz Darvinnинг evolyutsiya nazariyasi va Herbert Spenserning ijtimoiy darvinizmi ta’sirida bo‘lgan. Emil Zolaning nazariy asari, masalan, “Eksperimental roman” (1880), naturalistik yondashuvning asosini qo‘yib, inson xatti-harakatlarini o‘rganishda ilmiy tamoyillarni qo‘llashni targ‘ib qilgan. Naturalizm Hind adabiyotiga XIX asrning oxiri va XX asrning

boshlarida kirib keldi. Bu davrda Hindiston Britaniya mustamlakasi ostida edi, va G'arbiy adabiyot va madaniyatning ta'siri kuchaygan edi. Munshi Premchand hind adabiyotida naturalizmni targ'ib qilgan muhim yozuvchilardan biri edi. Uning asarlarida qashshoqlik, ijtimoiy adolatsizlik va hind qishloq hayoti tasvirlangan. Premchand o'z asarlarida realistik va naturalistik uslubdan foydalangan, bu esa uning asarlarini juda kuchli va ta'sirchan qilgan.

भ (Bha)

भावातिरेक (Achinarli yolg'on) bu adabiy uslub bo'lib, unda inson hissiyotlari va xususiyatlari tabiat yoki jonsiz narsalarga beriladi. Ushbu atama XIX asrda Jon Raskin tomonidan kiritilgan. Bu usul qahramonning kayfiyatini muhit orqali aks ettirish yoki hikoyaga mos keladigan maxsus muhitni yaratish uchun ishlatiladi. Hind adabiyotida inson hissiyotlarini tabiat yoki narsalarga berish ma'nosini o'z ichiga oladi va ularni qahramonlarning hissiyotlari yoki hikoyaning umumiy kayfiyati bilan bog'laydi. Hind yozuvchilaridan Jaishankar Prasad "कंकाल" ("Skelet") romanida bu uslubdan foydalangan. Prasad achinarli yolg'onné hikoyaning hissiy landshaftini kuchaytirish uchun ishlatadi. Quyida qahramonning ichki g'alayonini aks ettiradigan muhit tasvirlangan.

झरने की गर्जना और घटाओं की गर्जना, उसके मन के उथल-पुथल को प्रतिबिंबित करती थीं। जैसे ही आँसुओं की धाराएँ उसके गालों पर बह रही थीं, वैसे ही आकाश से मूसलधार बारिश हो रही थी।

“Shovqinli sharshara va bulutlarning momaqaldiroq tovushi uning yuragidagi g‘alayonni aks ettirdi. Uning yonoqlaridan ko‘z yoshlari oqib turganidek, osmondan to‘fon yomg‘iri yog‘di.”

Jaishankar Prasad kabi yozuvchilar bu usuldan foydalanib, qahramonlarning ichki hayotini aks ettiruvchi boy, immersiv atmosferalar yaratishga muvaffaq bo‘lishdi va o‘z asarlariga hissiy murakkablik qo‘shdilar.

भविष्यवाद (Futurizm) XX asrning boshlarida paydo bo‘lgan va texnologik taraqqiyot, tezlik, sanoat inqilobi kabi mavzularni o‘rtaga tashlagan avangard harakat hisoblanadi. Futurizm italyan shoiri Filipp Tommazo Marinetti tomonidan 1909-yilda e’lon qilingan “Futurizm Manifesti” bilan boshlanib, san’atning turli sohalariga, jumladan, adabiyot, rasm, haykaltaroshlik va arxitekturaga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Futurist yozuvchilar texnologiya va sanoatni yuksak baholadilar, bu ularning asarlarida tez-tez uchraydigan mavzular sirasiga kirgan. Ular eski an’analarni rad etib, harakat va o‘zgarishlarni olqishladilar. Futuristlar an’anaviy estetik qoidalarni buzishga intildilar, yangi va inqilobiy uslublar yaratishga harakat qildilar. Futurizmda shovqin, energiya va kuch tushunchalari katta o‘rin egalladi. Bu tushunchalar ko‘pincha shoirlar va yozuvchilar tomonidan tasvirlangan. Futurizm modernizmning bir qismi sifatida ko‘riladi, chunki u eski an’analardan voz kechib, zamonaviy hayotga mos keladigan yangi shakllar yaratishga intildi. Futurist yozuvchilar o‘z asarlarida tez-tez shaharlashuv, mashinalar, sanoat va texnologik taraqqiyot mavzularini yoritib, o‘z davrining dinamikasini va o‘zgarishlarini ifoda etdilar. Ular odatda an’anaviy syujet va

personajlardan voz kechib, o‘z asarlarida shovqin, harakat va energiyani tasvirlashga intildilar. Filipp Tommazo Marinettining “Futurizm Manifesti” (1909), Umberto Bochchionining “Shahar kamoli” (1910) - asosan rasm sifatida tanilgan bo‘lsa-da, Bochchioni futurizmning adabiy jihatlarini ham o‘z asarlarida namoyon qilgan. Shuningdek, Vladimir Mayakovskiy futuristik uslubda yozilgan she’r va dramalari bilan mashhur. Hindiy adabiyotda futurizm g‘oyasi yevropalik futuristlardan, ayniqsa Vladimir Mayakovskiy kabi yozuvchilardan ilhomlangan. Hind adabiyotida futurizm modernizm va zamonaviylik tushunchalari bilan birga rivojlandi, chunki bu oqimlar zamonaviylik, texnologik taraqqiyot va jamiyatning kelajagi haqida o‘ziga xos tasavvurlarni aks ettiradi. Hindistonda futuristik elementlar ba’zi adabiy ijodkorlarning asarlarida uchraydi, ammo bu oqim yevropalik futuristlardagi kabi kuchli va keng tarqalgan emas. Futurizm hind adabiyotida asosan modernizm va boshqa zamonaviy oqimlar bilan birga qabul qilindi va o‘ziga xos shaklda rivojlandi. Harishankar Parsaiy, Raghavendra Pandey, Manohar Shyam Josh, Raghuvir Sahay, Shamsher Bahadur Singh kabi hind ijodkarlari o‘z asarlarida ushbu uslubdan foydalanishdi. Misol uchun Manohar Shyam Joshi qalamiga mansub “कसप” (“Bilmadim”) nomli romli ramanidan keltirilgan parchada ushbu uslub elementlarini kuzatishimiz mumkin:

शहर की चमक-दमक और तकनीक के इस युग में, मानवीय रिश्तों का अस्तित्व कहीं खो सा गया है। हर कोई अपनी ही धून में, अपनी ही दौड़ में व्यस्त है। नए-नए अविष्कार और यंत्रों ने जिंदगी को आसान तो बना दिया है, लेकिन एक अजीब

सी उदासी भी फैल गई है। हर किसी के पास सब कुछ है, पर फिर भी कुछ कमी सी है।

भविष्यदश्य yoki आगे का दृश्य (Kelajakka nazar yoki kelajakdagi ko‘rinish). Ushbu badiiy qurilma – anaxroniya (hikoya vaqt tartibining buzilishi; voqealar o‘z vaqtida emas, balki kelajakdan boshlanishi yoki oldinga siljib bayon qilinishi, kelajakka ishora mavjud bo‘lishi mumkin)ning bir shakli bo‘lib, unda asardagi voqealarning ayrimlari voqelikning yakuni yoki kelajakda nima sodir bo‘lishidan boshlanishi, kelajakka ishora yoki tasvirlanishi hisoblanadi. Ushbu istilohni kelajakka nazar tashlash (“prolepsis”) yoki kelajakdagi ko‘rinish (“flashforward”) deb nomlash mumkin. Ma’lumki, ushbu badiiy uslub sujet davomida hali sodir bo‘lmagan, kelajakdagi muhim hodisalar, voqealar lavha, tush, xayollar asosida keltiriladi hamda ular hikoyaning hozirgi voqealariga bog‘liq bo‘ladi. Ushbu badiiy qurilmadan foydalanishda yozuvchining shaxsiy maqsadlari bo‘lishi mumkin.

М (M)

मानववाद yoki मानवतावाद (Gumanizm yoki insonparvarlik). Adabiyotshunoslikda inson, uning aql-zakovati, axloqiy qadr-qimmati, erkin fikri va yaratuvchan tabiatini markazga qo‘ygan estetik va g‘oyaviy yondashuv hisoblanadi. Uyg‘onish davrida shakllangan bu g‘oya Petrarka, Erasmus, Shekspir, Servantes kabi yozuvchilar

asarlarida inson va uning erkinligi markaziy mavzular hisoblangan. Keyinchalik realizm, ma'rifatchilik, zamonaviy realizm oqimlari ham insonparvarlik ruhi bilan boyigan. Shekspirning “Gamlet” pyesasida insoniy ikkilanish, haqiqatni izlash, adolatga intilish g‘oyalari ilgari surilgan; Viktor Gyugoning “Ezilganlar” romanida kechirim, ijtimoiy empatiya, ruhiy yuksalish hamda Premchandning “Qurbanlik” oddiy dehqonning fojiasi orqali ijtimoiy adolat istagi berilgan. Insonparvarlik hind adabiyotida insonning qadr-qimmati, tengligi, adolat va rahm-shafqatni ulug‘lovchi adabiy yondashuv bo‘lib, asarlar orqali ijtimoiy zulmga qarshi, ezilganlar hayotini tasvirlash va axloqiy uyg‘onish orqali namoyon bo‘ladi. Inson sha’ni va erkinligini markaziy masalaga qo‘yish; adolatsizlik, kastachilik, zo‘ravonlikni tanqid qilish; oddiy xalq, ayollar, kambag‘allar va mahalliy xalqlarning ovozini eshittirish; umumbashariy qadriyatlarni yoritish kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Premchand, Mulk Raj Anand, Rabindranath Tagor, Mahasveta Devi kabi yozuvchilar ijodida insonparvarlik g‘oyalari ulug‘lanadi.

माइमेसिस yoki अनुकरण (Mimesis). Adabiyotda yoki san’atda haqiqiy hayot, tabiat yoki inson harakatlarining taqlididan (taqlid, aks ettirish) iborat bo‘lgan konsepsiya bo‘lib, u qadim yunon adabiyoti va falsafasidan kelib chiqqan. Atamani birinchi bo‘lib Platon va keyinchalik Arastu (Aristotel) estetik tahlilga olib kirgan. San’atning hayotni, tabiatni yoki inson faoliyatini taqlid (aks ettirish) orqali ko‘rsatishi. Adabiy asar — bu haqiqatning badiiy shakldagi ifodasi, ya’ni “haqiqatni taqlid qilish”. Mimesis — bu adabiyotning real hayotni estetik vositalar orqali aks ettirishi. Bu faqat taqlid emas, balki haqiqatni san’at vositasida tushuntirish va qayta yaratish harakati

hisoblanadi. Hindiy adabiyotda mimesis ko‘pincha ijtimoiy haqiqatlar, kastachilik, gender tengsizligi, siyosiy zo‘ravonlik, va ma’naviy iztirobni aks ettirish uchun qo‘llaniladi. Premchand, Mulk Raj Anand, Kamleshvar, Mahasveta Devi kabi yozuvchilar mimesis orqali jamiyatning ko‘zga ko‘rinmaydigan og‘riqlarini badiiy shaklda ohib bergen va kitobxonni axloqiy anglash va hissiy qarama-qarshiligi sari yetaklagan.

Муқт тароқиғати (Erkin bilvosita nutq) usuli adabiy tasvirning o‘ziga xos shakli hisoblanadi. Bu usulda yozuvchi hikoyachining uchinchi shaxsdagi nuqtai nazarini va qahramonning birinchi shaxsdagi his-tuyg‘ularini bir-biriga uyg‘unlashtiradi. Natijada, hikoya ichidagi qahramonlarning fikrlari va his-tuyg‘ulari bevosita hikoya matniga qo‘shiladi, lekin bu qahramonlarning so‘zlari yoki fikrlari hikoya qiluvchi tomonidan emas, balki o‘zlari tomonidan aytilgandek ko‘rinadi. Qahramonning ichki monologlari hikoyachining nutqiga bevosita qo‘shiladi. Hikoya uchinchi shaxsdagi nuqtai nazardan yoziladi, lekin qahramonning birinchi shaxsdagi his-tuyg‘ulari va fikrlari bilan uyg‘unlashadi. Qahramonning ichki fikrlari hikoya qiluvchining til va uslubiga mos holda yoziladi. Misol uchun: agar hikoya qiluvchi “U juda xursand edi” deb aytsa, bu oddiy uchinchi shaxsdagi bilvosita nutq bo‘ladi. Agar hikoya qiluvchi “U juda xursandman deb o‘yladi” deb yozsa, bu bilvosita nutq bo‘ladi. Erkin bilvosita nutq usulida esa bu shunday yoziladi: “U juda xursand edi. Juda xursandman.” Bu usulda qahramonning ichki fikrlari hikoya qiluvchining matniga bevosita kirib keladi. Adabiyotda erkin bilvosita nutq usuli juda ko‘p asarlarda uchraydi, jumladan, Jeyn Ostinning

asarlari, Jeyms Joysning “Ulis” romanida va Virjiniya Vulfning “Mayoq” romanida bu usul keng qo‘llanilgan. Bu usul qahramonlarning ichki dunyosini yanada chuqurroq va aniqroq ko‘rsatishga yordam beradi. Hind adabiyotida ushubu usul qahramonlarning ichki kechinmalarini va hissiyotlarini chuqurroq ochib berish uchun foydalaniladi. Munshi Premchand, Nirmal Varma, Kamleshvar, Krishna Sobti va Vinod Kumar Shukla kabi yozuvchilar bu usulni o‘z asarlarida muvaffaqiyatli qo‘llagan. Xususan, Munshi Premchand qalamiga mansub “बड़े घर की बेटी” (“Katta xonadonning qizi”) hikoyasida ushubu usulning foydalanganligini kuzatishimiz mumkin:

“राम और श्याम दोनों खेत से लौटे। दरवाजे पर आते ही श्याम ने कहा, ‘भाभी,
पानी लाओ।’ राम ने उसे घूरकर देखा। श्याम का मन बुझ गया। घर में आकर उसने
सोचा, ‘कितना निर्दयी है भाई! भाभी कितनी दुःखी है, और उसे पानी लाने के
लिए कह रहा है।”

ミथकीय विधि, वस्तुनिष्ठ संबंधक (Mifologik usul) qadimgi miflar, klassik hikoyalar yoki arxetiplarni zamonaviy asarlarga qo‘sish orqali asarga chuqurroq va vaqt ni qamrab oluvchi o‘lchov berish texnikasi tushuniladi. Ushbu usul yordamida zamonaviy tajribalarni qadimgi miflar va afsonalarda uchraydigan universal mavzular bilan bog‘lash mumkin, bu esa inson tabiatini va jamiyatni yanada boy va chuqurroq tushunishga yordam beradi. Adabiyotda mifologik usul XX asrda modernizm davrida keng qo‘llanila boshlandi. Modernistlar zamonaviy dunyoning murakkabligini va o‘zgaruvchanligini aks ettirish uchun

an'anaviy hikoya qilish uslublaridan voz kechib, yangi eksperimentlarga murojaat qilishdi. T.S. Eliot “The Vaste Land” (“Changalzor”) asarida mifologik usulni qo'llab, qadimiy miflar va diniy an'analarni zamonaviy dunyo tasviriga joylashtirdi. Bu usul orqali u insoniyatning ma'naviy va madaniy inqirozini tadqiq qildi. Jeyms Joys o'zining mashhur romani “Ulis”da Gomerning “Odisey” asariga asoslangan holda zamonaviy Dublin hayotini tasvirladi. U qadimiy mifologik strukturalarni zamonaviy hikoyalarga kiritib, inson tajribasining davomiyligini va universalligini ko'rsatdi. Garchi Campbell yozuvchi bo'lmasa ham, balki mifshunosligi sababli, uning “The Hero with a Thousand Faces” (“Ming yuzli qahramon”) asari adabiyotdagi mifologik usulning nazariy asosini yaratib berdi. U qahramonning sayohati deb atalgan arxetipik struktura haqida yozib, ko'plab adiblar uchun ilhom manbai aylandi. Harivansh Rai Bachchan, Ramdhari Singh Dinkar, Nirmal Varma va Kamleshvar kabi yozuvchilar ushbu usulni o'z hikoyalariga hissiy chuqurlik qo'shish va qahramonlarning ichki tajribalarini o'quvchi bilan bog'lash uchun qo'llashgan. Hind adabiyotida mifologik usul qadimiy miflar, dostonlar va xalq og'zaki ijodini zamonaviy hikoyalarga qo'shishni o'z ichiga oladi. Ushbu usul zamonaviy masalalarini o'rganish, madaniy merosni yoritish va hikoyaga chuqrarroq, ramziy ma'no berish uchun foydalaniladi. Ramdhari Singh Dinkarning “Rashmirathi” romani ushbu usulni kuzatishimiz mumkin. “Rashmirathi”da Ramdhari Singh Dinkar Mahabharata epik qahramoni Karnanining hikoyasini qayta tasvirlaydi. Karnanining hikoyasini qayta hikoya qilish orqali Dinkar kasta, qahramonlik va taqdir masalalarini yoritib beradi, qadimiy

miflarni zamonaviy o‘quvchilar uchun dolzarbligini ko‘rsatishga urinadi.

राधेय थे, वे नहीं थे राजा, पर एक मित्रता का मान
सर्वस्व दान का जब हमने, नाता दिया निभान
कहता था सूरज कभी, धारा को छूते जाओ, नदियां
करो साहस, गहरा भवसागर भी नत है धनुर्धर।

Dinkar Mahabharatadan qahramonlar va mavzularni olib, mifologik qarama-qarshilik yaratadi. Karnaning hikoyasidan jamiyat qoidalariiga qarshi kurash vaadolat izlash uchun foydalilanadi. Mifologiyani qo‘sish orqali Dinkar o‘tgan va hozirgi zamon o‘rtasidagi bog‘liqlikni yaratadi, hikoyaning madaniy chuqurligini oshiradi.

₹ (R)

रूपक (Allegoriya) bu sujet va obrazlar orqali kattaroq g‘oyalar va tushunchalarni ifodalovchi hikoya qilish uslubi hisoblanadi. Bu ko‘pincha ma’naviy, diniy yoki siyosiy xabarlarni ramziy shaklda yetkazish uchun qo‘llaniladi. Allegoriya qadimiy adabiyotda mavjud bo‘lgan. Platonning “G‘or allegoriysi” hamda “Respublika” asarida eng qadimiy va mashhur misollaridan biri hisoblanadi. Allegoriya o‘rtasrlar adabiyotida, ayniqsa diniy matnlarda, katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Dante Alighierining “Ilohiy Komediya” va Jon Banyanning “Sayohatchining yo‘li” nomli asarlari allegoriyaning eng yorqin namunasi hisoblanadi. Ushbu uslub Edmunt Spenserning “Parilar qirolichasi” va keyinchalik zamonaviy adabiyotda Jorj Oruellning

“Molxona” va K.S. Lyuisning “Narniya Solnomalari” kabi asarlarda qo‘llanilgan. Hind adabiyotida allegoriya turli yozuvchilar tomonidan chuqur ma’nolar va jamiyatni tanqid qilish uchun qo‘llanilgan. Munshi Premchandning “गोदान” (“Qurbanlik”) hind qishloqlarining ijtimoiy-iqtisodiy kurashlarini allegoriya sifatida ko‘rish mumkin, fermerlarning qiyinchiliklari va feodal tizimning zulmini ifodalaydi. Harishankar Parsai “निठल्ले की डायरी” (“Nithallining kundaligi”) asarida allegoriya orqali Hindistonning siyosiy va ijtimoiy muhitini tanqid qiladi, oddiy odamlarning umidsizlik va kurashlarini tasvirlaydi. Premchandning “Qurbanlik” asari hind adabiyotining eng muhim asarlaridan biri bo‘lib, hind dehqonlarining ekspluatatsiya va qiyinchiliklarini ramziy ma’noda ifodalaydi.

होरी ने जिंदगी भर मेहनत की, लेकिन नतीजा क्या निकला? केवल कर्ज और कष्ट।
उसका सपना था कि उसके आँगन में भी एक गाय हो, लेकिन वह सपना कभी साकार न हो सका।

“Hori butun umri davomida mehnat qildi, lekin natiasi nima bo‘ldi? Faqat qarz va azob. Uning orzusi hovlisida sigir borligi edi, lekin bu orzu hech qachon amalga oshmadi.”

Asarining asosiy mavzusi qishloq kambag‘allarining ijtimoiy-iqtisodiy zulmga qarshi kurashi hisoblanadi. Asarda qashshoqlik, ekspluatatsiya va hurmat va qadr-qimmatga intilish mavzulari o‘rganiladi. Roman kambag‘allarni o‘z orzulariga erishishlariga to‘sqinlik qiluvchi tizimli ekspluatatsiya va ijtimoiyadolatsizliklarni tasvirlaydi. U hamdardlik, ijtimoiyadolat va islohotlarni himoya qiladi. Premchandning “गोदान”

asaridagi uslubi realizm va qishloq hayotining batafsil tasvirlari bilan ajralib turadi. U oddiy, ammo kuchli tilda o‘z qahramonlarining kundalik kurashlarini tasvirlaydi.

Л (L)

लक्षणा अलंकार का एक प्रकार, प्रत्ययात्मक बिंब, प्रतीकात्मक संकेत yoki **सिनेकडोकी (Sinekdoha)**. Aadabiyotshunoslikdagi badiiy ifoda usuli, ya’ni bir butunning bir qismini aytib butunni nazarda tutish, yoki butunni aytib uning bir qismini tushunishni anglatadi. Bu uslub metonimiyaga o‘xhash, ammo nozik semantik farq bilan ajraladi. Stilistik vosita sifatida foydalaniladi va tasvir, umumlashtirish yoki ta’sir kuchini oshirish maqsadida qo‘llaniladi. Bu uslub hind adabiyotida sinfiy, gender va etnik bosimlarni umumlashtirib berish uchun qo‘llaniladi. Premchandning “Qurbanlik” romanida “zamindorlar” deganda ko‘pincha “zulm” tushuniladi, ya’niki sinf butun jamiyatni anglatadi. Amrita Pritam qalamiga mansub “Pinjar” (“Skelet”) romanida ayol tanasi – butun jamiyatdagi zo‘ravonlik sinekdohasi sifatida qo‘llaniladi. Mahasveta Devining “Draupadi” romanida Draupadi – barcha adivasi ayollarning umumiyligi ramzi sifatida aks ettiriladi.

लिटोटीस (Litota). Adabiyotshunoslikda badiiy ifoda vositasi bo‘lib, unda ma’noni kuchaytirish yoki kuchsizlantirish uchun inkor orqali ijobjiy yoki salbiy mazmun beriladi. Bu uslub orqali nozik istehzo, kamtarinlik, yoki ob’ektivlik yaratiladi. Litota biror narsani to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytmasdan, uni inkor shaklida ifodalash vositasidir, ya’ni

“yaxshi” o‘rniga “yomon emas”, yoki “go‘zal” o‘rniga “xunuk emas” tarzida foydalaniladi. Hind adabiyotida hind adabiyotida ehtiyotkorlik, kinoya, kamtarlik yoki og‘ir hissiyotlarni yumshatib ifodalash maqsadida ishlatiladigan badiiy inkor usuli bo‘lib, yozuvchi biror sifatni to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytmay, uni inkor shaklida ifodalaydi, bu esa nozik, zohiran yumshoq, ammo semantik jihatdan kuchli ta’sirli ifoda beradi. Premchand, Amrita Pritam, Nirmal Varma, Bhisham Sahni kabi yozuvchilar o‘z asarlarida litotadan barakali foydalanishgan.

¶ (V)

виғбнна (Ironiya) bu badiiy asarlardagi uslubiy vosita bo‘lib, ikki ma’noda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan so‘z yoki gaplarni qo‘llash bilan ularning asosiy ma’noga teskari, hatto uni inkor etuvchi ma’nosи orqali kinoya, qochirik, piching, kesatiq, mazax ma’nolarini ifodalash usuli hisoblanadi. So‘z yoki voqealarning kutilmagan, aksincha ma’noni anglatishi holati ko‘rinishida ham qo‘llaniladi. Ironiya ko‘pincha shafqatsiz yoki hazilomuz tarzda qo‘llaniladi, va bu orqali yozuvchi yoki shoir o‘z fikrini kuchaytiradi. Kitobxon voqealar rivojlanishining asl mohiyatini biladi, lekin qahramonlar bu haqda bilmaydi. Masalan, Shakespirning “Romeo va Julietta” asarida Romeo Julietta o‘lik emasligini bilmaydi, ammo kitobxonga bu ma’lum. Voqealar kutilganidan butunlay aksincha rivojlanadi. Masalan, yong‘indan himoya qilish uchun mo‘ljallangan binoning o‘zi yonib ketishi. Aytilgan so‘zlarning asl ma’nosи aksincha bo‘ladi. Masalan, yomg‘irli kunda “Qanday yaxshi ob-havo!” deb aytilishi. Adabiy asarlarda sotira

orqali ijtimoiy yoki siyosiy kamchiliklar va illatlar tanqid qilinadi. Bu tur ironiyada hazil va kinoya orqali tanqid kuchaytiriladi. Ironiya adabiyotda muhim uslubiy vosita bo‘lib, u asarlarning mazmunini chuqurlashtiradi va o‘quvchini mulohaza qilishga undaydi. Bu uslub orqali yozuvchilar jamiyatdagi nohaqliklarni, insoniy kamchiliklarni va ziddiyatlarni ko‘rsatib beradi. Ironiyaning turli shakllari adabiyotda muhim rol o‘ynaydi va asarning estetik va mazmuniy boyligini oshiradi. Hindiy adabiyotda ironiya keng qo‘llanilgan uslubiy vositalardan biri hisoblanadi. Ironiya hindiy adabiyotda turli asarlarda turli maqsadlarda foydalanilgan, masalan, ijtimoiy tanqid, siyosiy satira yoki insoniy tabiatning nozik tomonlarini ko‘rsatish uchun. Munshi Premchand o‘z asarlarida ko‘pincha ironiya orqali jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy nohaqliklarni ko‘rsatib bergen bo‘lsa, Harishankar Parsai esa asarlarida u ko‘pincha zamonaviy hind jamiyatidagi qiziq voqealar va odamlarning ikkiyuzlamachilagini tanqid qilgan. Nirmal Varma asarlarida ironiyadan foydalanish orqali jamiyatdagi ziddiyatlarni, insoniy munosabatlaridagi murakkabliklarni va shaxsiy iztiroblarni ko‘rsatadi. Munshi Premchandning “गोदान” (“Qurbanlik”) asaridan keltirilgan parchada ironiyaning ko‘rinishini kuzatishimiz mumkin:

होरी की जिंदगी भर की तमन्ना थी कि उसके घर में एक गाय हो। इसके लिए उसने अपने जीवनभर की पूंजी लगा दी। लेकिन अंत में, जब वह मरने के कगार पर था, उसके पास न तो गाय थी और न ही अपनी जमीन।

“Horining umrbod orzusi uyida bir sigiri bo‘lishi edi. Buning uchun u butun hayoti davomida jamg‘argan barcha pullarini sarfladi. Ammo

oxir-oqibat, u o'lim yoqasida turganida, na sigiri bor edi va na o'z yeriga ega edi.”

Horining sigir orzusi unga farovonlik va baxt keltirishi kerak edi, ammo ironik tarzda bu orzu uni moliyaviy inqirozga olib keladi. Orzusiga erishish o‘rniga, u hamma narsasini yo‘qotadi. Horining holatidagi fojiali ironiya uning kurashlarining behudaligini va qishloq hayotining qattiq haqiqatlarini ko‘rsatadi. Uning mashaqqatli mehnati va qurbonliklariga qaramay, natija umid qilganidan tamoman teskari bo‘ladi. Premchand ironiya yordamida dehqonlar kabi kambag‘allarning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari va tizimli adolatsizliklarni tanqid qiladi. Ironiya qishloq kambag‘allari uchun orzular va haqiqat o‘rtasidagi tafovutni ta’kidlaydi. Munshi Premchandning “गोदान” (Godaan) asarida ironiya (“विडंबना”) dan foydalanish hayotning ziddiyatlari va qattiq haqiqatlarini samarali tarzda yoritishning uddasidan chiqa olgan. Ironik vaziyatlar orqali yozuvchilar ijtimoiy sharh berishlari va o‘z hikoyalari hissiy ta’sirini chuqurlashtirishlari mumkin, bu esa o‘quvchilarni asosiy g‘oyalar va mavzular haqida chuqurroq o‘ylashga undaydi.

विरोधाभास (Paradoks) bu ikki yoki undan ortiq zid fikrlar yoki g‘oyalar bir vaqtning o‘zida haqiqat bo‘lishi mumkin bo‘lgan holat. Paradokslar ko‘pincha o‘quvchini fikrlashga undaydi va yanada chuqurroq ma’nolarni ifodalaydi. Paradoks, o‘z tabiat bilan, odatda mantiqiy bo‘lmagan fikrlarni o‘z ichiga oladi, lekin yanada chuqurroq tahlil qilinganda bu fikrlarning haqiqat yoki ahamiyatli bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Paradoks ikki yoki undan ortiq zid fikrlarni birlashtiradi, ularning har biri alohida olganda mantiqiy, lekin

birgalikda qaraganda ziddiyatli ko‘rinadi. Paradoks o‘quvchini fikrlashga va o‘z qarashlarini qayta ko‘rib chiqishga undaydi. Shakespir’ning “Gamlet” asaridagi Gamletning aytgan so‘zlari: “Men qamoqxonadaman, lekin hech qanday zanjirlarim yo‘q.” Bunda Gamletning ruhiy holati va ichki iztiroblari ziddiyatli tarzda ifodalanadi. Jorj Orvelning “1984” asaridagi Boshqarmaning shiori: “Urush – bu tinchlik, erkinlik – bu qullik, johillik – bu qudrat.” Bu paradokslar Orvelning anti-utopik jamiyatidagi propaganda va haqiqatni yashirish usullarini ko‘rsatadi. Hindiy adabiyotda ham paradox keng qo‘llaniladi va u o‘ziga xos fikrlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Misol uchun, Munshi Premchandning asarlarida ijtimoiy ziddiyatlar va insoniy tabiatdagi murakkabliklarni ko‘rsatish uchun paradoxlardan foydalanilgan. Hindiy adabiyotida Jaishankar Prasad, Harivansh Rai Bachchan, Nirmal Varma, Agey kabi mohir yozuvchilar paradoksdan unumli foydalanishgan. Xususan Harivansh Rai Bachchan qalamiga mansub “मधुशाला” (“Mayxona”) nomli she’ridan olingan parchada ushbu usulni kuzatish mumkin:

“मुसलमान और हिन्दू हैं दो, एक मगर उनका प्याला,
एक मगर उनका मदिरालय, एक मगर उनकी हाला;”
“Musulmon va hindular ikkita, lekin jomi bir,
Ularning mayxonasi bir, sharobi bir”.

Tashqi tomondan, musulmonlar va hindlar ikki xil diniy jamoa hisoblanadi, ular ko‘pincha e’tiqodlari va urf-odatlari bilan farqlanadilar. Biroq, Bachchan chuqurroq, birlashtiruvchi inson tajribasini anglatish uchun jom, mayxona va sharobning umumiy tasvirlaridan foydalanadi. Sharobxona, odamlar ichish uchun

yig‘iladigan joy, ko‘rinadigan farqlarga qaramay, barcha odamlar bir xil muhim insoniy tajribalari bilan o‘rtoqlashadigan dunyoning ramziga aylanadi. Paradox adabiyotda o‘quvchini chuqurroq ma’nolarni izlashga undash va oddiy haqiqatlarni yanada murakkabroq tarzda tushunishga yordam beradigan badiiy tasviriy vosita hisoblanadi.

वस्तुनिष्ठ संबंधक (Maqsadli muvofiqlik) adabiy uslub bo‘lib, ingliz shoiri T.S. Eliot tomonidan ommalashtirilgan bo‘lib, konkret ob’ektlar, vaziyatlar yoki hodisalar orqali o‘quvchida ma’lum bir hissiy tajribani uyg‘otishga qaratiladi. Bu orqali yozuvchi hissiy holatni bevosita tavsiflamasdan, balki ob’ektiv, aniq detal va vaziyatlar yordamida ifodalaydi. Ob’ektiv Tafsilotlar: Yozuvchi aniq va konkret tafsilotlarni qo‘llaydi. Bu tafsilotlar o‘quvchining his-tuyg‘ularini uyg‘otish uchun mo‘ljallangan. Ushbu uslub orqali o‘quvchida muayyan hissiy tajriba yaratiladi. Bu tajriba bevosita ifodalangan his-tuyg‘ular emas, balki vaziyat va detallar orqali beriladi. Yozuvchi o‘zining his-tuyg‘ularini samarali ifodalash uchun ushbu uslubdan foydalanadi. Bu orqali hissiyotlar yanada kuchliroq va ta’sirchanroq bo‘ladi. T.S. Eliotning "J. Alfred Prufrokning ishq qo‘sishg‘i" she’rida Prufrokning qo‘rquvlari va shubhalari bevosita ifodalanmasdan, balki uning atrofidagi ob’ektlar va vaziyatlar orqali ifodalanadi. Hind adabiyotida Nirmal Varma, Kamleshvar va Mohan Rakesh kabi yozuvchilar ushbu uslubni o‘z hikoyalariga hissiy chuqurlik qo‘sish va qahramonlarning ichki tajribalarini o‘quvchi bilan bog‘lash uchun qo‘llashgan. Nirmal Varmaning “परिदे” (“Qushlar”) hikoyasidan olingan parchada ushbu uslubning ta’sirini kuzatishimiz mumkin. Ma’lum obyektlar va

sozlamalarni tasvirlash orqali u qahramonlarning ichki holatini aks ettiradigan hissiy qarama-qarshilikni yaratadi.

वह खिड़की के पास खड़ी थी। बाहर बारिश हो रही थी। उसकी आँखों में अजीब सी उदासी थी। खिड़की पर गिरती बारिश की बूँदें उसके मन की अशांति को दर्शा रही थीं।

“*U deraza yonida turardi. Tashqarida yomg‘ir yog‘ayotgan edi. Uning ko‘zlarida g‘alati bir qayg‘u bor edi. Deraza oynasiga tushayotgan yomg‘ir tomchilari uning ongidagi notinchlikni aks ettirardi.*”

Deraza, yomg‘ir va yomg‘ir tomchilari qahramonning hissiy holatini uyg‘otish uchun ramz sifatida foydalanilgan. Deraza oynasiga tushayotgan yomg‘ir tomchilarining tavsifi qahramonning ichki kurashini ramz sifatida xizmat qiladi, o‘quvchida chuqur hissiy ta’sir yaratadi. Nirmal Varmaning ushbu uslubdan foydalanishi nozik va kuchli bo‘lib, o‘quvchiga manzara orqali qahramonning histuyg‘ularini anglash imkonini beradi.

विकल्पहीन साहित्य (Anti-utopik adabiyot) bu inson qashshoqligi, azob-uqubatlari, zulm, kasallik va ortiqcha aholiga ega jamiyatni tasvirlaydi. Bu ko‘pincha jamiyatning qayerga qarab ketayotganligi haqida ogohlantiruvchi hikoya bo‘lib, totalitarizm, ekologik ofat va ijtimoiy qulash mavzularini o‘rganadi. Samuel Batlerning “Erevhon” (1872), Viktoriya jamiyati tanqid ostiga olinadi. Anti-utopik adabiyot XX asr boshlarida muhim ahamiyat kasb eta boshladi, mashhur asarlar orasida Yevgeniy Zamyatinning “Biz” (1924), Aldous Huxleyning “Jasur yangi dunyo” (“Brave New World” (1932) va Jorj Oruellning “1984” (1949) asarlari kiradi. Hind adabiyotida anti-utopik mavzular

turli yozuvchilar tomonidan o‘rganilgan, garchi G‘arb adabiyotiga qaraganda kamroq tarqalgan. Harishankar Parsaining “विकलांग श्रद्धा का दौर” (“Viklang Shraddhaning zamoni”) nomli ushbu asari zamonaviy Hindistonning ijtimoiy-siyosiy holatini tanqid qilib, ko‘r ishonch va korrupsiya bilan qamalgan jamiyatning anti-utopik tasvirini beradi. Rahi Masum Razaning “टोपी शुक्ला” (“Topi Shukla”) hikoyasi garchi qat’iy anti-utopik asar bo‘lmasa-da, mustaqillikdan keyingi Hindistonda umidsizlikni o‘rganadi va ijtimoiy qadriyatlarning parchalanishini aks ettiradi. Harishankar Parsaining “विकलांग श्रद्धा का दौर” (“Viklang Shraddhaning zamoni”) satirik asar bo‘lib, Hindistondagi ijtimoiy-siyosiy holatni tanqid qiladi. Asar siyosiy manzarani satirlashtiradi, yetakchilik va boshqaruvning muvaffaqiyatsizliklarini ko‘rsatadi va bu anti-utopik sharoitlarga hissa qo‘shadi.

श (Sh)

शिक्षात्मक उपन्यास yoki **विकास उपन्यास** (*Tarbiyaviy roman*) bu qahramonning yoshlikdan kattalikka qadar bo‘lgan psixologik va axloqiy o‘sishini aks ettiruvchi adabiy janrdir. Bu janr balog‘at yoshiga to‘lish roman sifatida ham tanilgan. Asar odatda qahramonning shakllanish yillari va o‘zini kashf qilish hamda shaxsiy rivojlanishga olib keladigan tajribalarini kuzatib boradi. Tarbiyaviy roman “Bildungsroman” atamasi nemis tilidan olingan bo‘lib, “bildung” “ta’lim” yoki “shakllanish” va “roman” “roman” ma’nolarini bildiradi. Bu janr XVIII asr oxirida Germaniyada paydo bo‘lgan. Johann

Volfgang von Gyotening “Vilgelm Meysterning shogirdlik yillari” (1795-96) asari bu janrning dastlabki asarlaridan biri hisoblanadi. Tarbiyaviy roman XIX asr Yevropa adabiyotida alohida o‘rin tutib, ko‘plab asarlarga ta’sir ko‘rsatgan. Tarbiyaviy roman janri, o‘zini kashf etish va shaxsiy rivojlanishga e’tibor qaratgan holda, hind adabiyotida muhim o‘rin egalladi. Nirmal Varma, Rahi Masum Raza, Phanishvar Nath ‘Renu’ va Kamleshvar kabi yozuvchilar o‘z qahramonlarining rivojlanish jarayonlarini keng ijtimoiy, madaniy va siyosiy kontekstlarda o‘rganib chiqqan hikoyalarni yaratdilar. Ushbu hikoyalar orqali o‘quvchilar yetilish jarayonining murakkabligini va shaxsiyat va qadriyatlarni shakllantiruvchi omillarni chuqurroq tushunib oladilar. Nirmal Vermaning “रात का रिपोर्टर” (“Tun muxbiri”) romani yosh jurnalistning hayot va ish murakkabliklarini yengib o‘tishi, uning shaxsiy o‘sishi va axloqiy muammolari haqida hikoya qiladi. Rahi Masum Razaning “आधा गाँव” (“Yarim qishloq”) romani kichik bir qishloqdagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar fonida qahramonning o‘sishini aks ettiradi, uning hissiy va intellektual rivojlanishini tasvirlaydi. Phanishvar Nath ‘Renu’ “मैला आँचल” (“Mila Anchal”) romani qahramonning begunohlikdan tajribaga o‘tishini tasvirlaydi, Hindistonning qishloq hayoti fonida ijtimoiy o‘zgarishlar va shaxsiy o‘sishni o‘rganadi. Kamleshvarning “कितने पाकिस्तान” (“Qancha Pokistonlar”) romani tarixiy va siyosiy voqealar orqali qahramonning psixologik va axloqiy rivojlanishini o‘rganadi, bu voqealarning uning shaxsiyati va e’tiqodlariga ta’sirini ko‘rsatadi. Nirmal Varma tomonidan yozilgan “रात का रिपोर्टर” (“Tun muxbiri”) romani hind

adabiyotidagi ushbu janrining mashhur namunasi hisoblanadi. Hikoya yosh jurnalistning axloqiy qiyinchiliklar va shaxsiy muammolar bilan kurashishi haqida hikoya qiladi. Uning tajribalari orqali u psixologik va axloqiy o'sishni boshdan kechiradi, haqiqat, halollik va media rolini chuqurroq tushunadi. Qahramonning begunohlikdan yetuklikka o'tish yo'li turli uchrashuvlar va ziddiyatlar bilan belgilanadi, bu uning qadriyatlari va e'tiqodlarini sinovdan o'tkazadi. Hayoti va ish faoliyatidagi murakkabliklarni yengib o'tganida, u o'zini va dunyodagi o'rnini chuqurroq tushunadi.

С (S)

संकेतविज्ञान / चिह्न-विज्ञान (Semiotika). Belgi, ramz, ishora va ularning ma'nosini o'rghanuvchi fan bo'lib, adabiyotshunoslikda u matndagi belgilar, obrazlar, strukturalar va ularning qanday ma'no yaratishini o'rghanadi. Semiotika asarning ochiq ma'nosini bilan bir qatorda yashirin va ramziy qatlamlarini ham tahlil qilishga imkon beradi. Matnni belgilarga asoslangan tizim sifatida ko'rish; tushunilmay qolgan obrazlar va ramzlarni sharhlash; mazmun (tarixiy, madaniy) orqali belgilarning o'zgaruvchan ma'nosini tushunish; matndagi "matn ichidagi matn" (intertekstual belgilar) ni ochish kabi vazifalarni bajaradi. Ferdinand de Saussure, Charles Sanders Peirce, Roland Barthes, Yuri Lotman kabi adabiyotshunos, tilshunos olimlar ushbu sohani rivojlantirishda ulkan natijalarga erishishgan. Belgilar nazariyasi hisoblanagn semiotika — hind adabiyotida ham qadimiy davrdan boshlab muhim o'rin egallagan. Mahabharata, Ramayana, Bhakti she'riyati va zamonaviy adabiyotlarda obrazlar, ramzlar,

ishoralar orqali ko‘p qatlamlı ma’no yaratish an’anasidan foydalanish hamda uni tadqiq etish yaxshi rivojlangan. Hind realistik yozuvchisi Premchandning “Boyning qudug‘i” nomli hikoyasida quduq zulm, egallab olingen erkinlik belgisi sifatida gavdalantiriladi.

Modernistik yozuvchi Nirmal Varmaning ichki kechinmalarni ifodalovchi belgilar “deraza” tashqi dunyo bilan chegaraning metaforasi, “sokinlik” ruhiy bo‘shliq yoki metafizik iztirob kabi ma’nolarda hamda Amrita Pritam “Pinjar” (“Skelet”) ayollarning ijtimoiy cheklovlarini bildiruvchi semantik belgi sifatida aks ettiriladi

संरचनावाद yoki **संरचनात्मक दृष्टिकोण** (Strukturalizm).

Adabiyotshunoslikdagi nazariy yondashuv bo‘lib, adabiy asarni tuzilma (strukturalar) orqali tahlil qilishni taklif qiladi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, har bir adabiy matn til, obraz, voqeа, belgilar va munosabatlar tizimi orqali tushuniladi, ya’ni matnning ichki tuzilmasi asosiy tahlil obyekti hisoblanadi. Strukturalizm — bu adabiy matnni yagona, o‘zaro bog‘langan belgilar tizimi sifatida ko‘rvuchi nazariy oqim bo‘lib, matnning tashqi mazmunidan ko‘ra, uning ichki shakli, qatlamlari va tuzilmasisiga e’tibor qaratadi. Ferdinand de Saussure, Claude Lévi-Strauss, Roland Barthes, Tzvetan Todorov kabi tilshunos-adabiyotshunos olimlar ushbu sohani rivojiga ulkan hissa qo‘shganlar. Hind adabiyotida hind adabiyotida matnni ichki tuzilmasi, belgilar tizimi, arxetipler va qarama-qarshi juftliklar asosida tahlil qilishga asoslanib, asarning sirtqi mazmunidan ko‘ra, uning shakli, elementlar o‘rtasidagi aloqalar va mifologik yoki madaniy strukturalarni aniqlashga urg‘u beradi.

СТРИКТОН (ing. **Juxtaposition**, **qarshilantirish**, **qarama-qarshi qo'yish**, **qiyoqlash**) adabiyotshunoslikda ikkita yoki undan ko'p elementlarni bir-biriga qarshi qo'yish yoki yonma-yon qo'yish orqali ularni taqqoslash va qiyos yoki farq hosil qilish usuli hisobalandi. Bu usul yordamida yozuvchi turli g'oyalar, mavzular, xarakterlar, voqealar yoki tasvirlarni birgalikda qo'yib, ular orasidagi farqlar va o'xshashliklarni ko'rsatadi. Natijada, kitobxon mazkur elementlarning o'zaro bog'liqligini, ziddiyatini yoki ular orqali berilayotgan chuqur ma'noni yanada yaxshi anglab oladi. Bir-biriga qarama-qarshi xarakterlarni yonma-yon ko'rsatish orqali yozuvchi ularning shaxsiy fazilatlari va xulq-atvoridagi farqlarni o'quvchiga aniqroq yetkazishi mumkin. Masalan, bir qahramonning jasurligi ikkinchisini qo'rkoq sifatida ko'rsatadi. Ikki turli holatni yonma-yon ko'rsatish orqali, ular orasidagi farqdan foydalanib, yozuvchi bir holatning boshqasiga ta'sirini yoki mazmunini oshirishi mumkin. Masalan, tinch va osoyishta manzara bilan qo'rqinchli va vahimali holatning yonma-yon kelishi. Ikki turli mavzuni birgalikda ko'rsatish orqali yozuvchi ularning o'zaro bog'liqligini yoki ziddiyatini ta'kidlaydi. Masalan, sevgi va nafrat, hayot va o'lim, erkinlik va qamoq mavzularini birgalikda ko'rsatish orqali bu tushunchalarning murakkabligini va ularga bo'lgan turli yondashuvlarni namoyish etadi. Hind adabiyotida ham qarshilantirish keng qo'llanilib, turli g'oyalar, xarakterlar va voqealarni taqqoslash orqali chuqur ma'nolar berishga harakat qilingan. Masalan, Premchandning hikoyalari va romanlarida qashshoqlik va boylik, an'anaviylik va zamонавиyl иккита тушунчаларни ўнма-юн оқишиш орқали жамиятдаги турли сатламлар орасидаги фарqlar тahlil ostiga олинган.

Qarshilantirish adabiyotda tasvir va ma’no yaratishning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Bu usul yordamida yozuvchilar kitobxonni qiziqtiruvchi va o‘ylantiruvchi qarama-qarshiliklarni yaratib, o‘z asarlariga chuqur mazmun va tasirchanlik bera oladilar. Hind adabiyotida ham bu usul orqali jamiyatning turli qatlamlari va ularga bo‘lgan yondashuvlarni chuqurroq ochib berishga harakat qilingan. Qarshilantirish usulidan barakali ijod qilgan hind ijodkorlari sarasiga Munshi Premchand va uning “गोदान” (“Qurbanlik”), “कफन” (“Kafan”) romanlari, Nirmal Varmaning “लाल टीन की छत” (“Qizil tunuka tom”), “वे दिन” (“O’sha kunlar”), Kamleshvarning “कितने पाकिस्तान” (“Qancha Pokistonlar”), “समुद्र में खोया हुआ आदमी” (“Ummonda yo‘qolgan inson”) hamda Phanishvar Nath Renu qalamiga mansub “मैला आँचल” (“Isqirt ro‘mol”), “परती परिकथा” (“Tashlandiq yer haqidagi afsona”) kabi romanlarda qarshilantirishdan unumli foydalanishgan. Xususan, quyida keltirilgan Phanishvar Nath Renuning “मैला आँचल” (“Isqirt ro‘mol”) romanidan olingan parchada ushbu uslubni kuzatishimiz mumkin: गाँव के एक कोने में आधुनिकता की चकाचौंध फैल रही थी, तो दूसरे कोने में पुरानी मान्यताएँ और रुढ़ियाँ अब भी जिंदा थीं। एक ओर बिजली के खंभे खड़े हो रहे थे, तो दूसरी ओर बैलगाड़ियाँ धीरे-धीरे सड़क पर चल रही थीं।

समानांतर संरचना yoki समांतर शैली (Parallelism).

Adabiyotshunoslikda parallelism — bu badiiy matnda yoki nutqda bir necha gap, ibora yoki satrlarning tuzilish jihatidan o‘xshash shaklda takrorlanishi bo‘lib, u uslubiy vosita sifatida ohang, urg‘u va mazmuniy

kuchni oshirish uchun foydalaniladi. O‘zbek shoirasi Zulfiya Mo‘minova qalamiga mansub “Ayolga baxt bering” nomli she’rida ushbu badiiy vositani uchratishimiz mumkin:

Ayolga baxt bering, saodat bering,
Demang yuribdi-ku kulib, jilmayib.
Ayol kulib turib o‘lishi mumkin,
Dunyoni olishi mumkin jilmayib.

Mumtoz hind adibi Tulsidas, Kabir va Rahim kabi Bhakti shoirlari ushbu vositadan batafsil foydalanishgan. Bhakti shoiri Kabirdasning “O‘limdan oldin o‘lish” nomli baytida ushbu vositani kuzatamiz. Kabirning sufi-falsafiy ruhdagi do‘stona baytlaridan bo‘lib, u nafshi o‘ldirish, ya’ni manaviy o‘zgarish va egoni tark etishni haqiqiy o‘lim deb ataydi. “O‘limdan oldin o‘lish” — bu ruhiy uyg‘onish degani ma’noda qo‘llaydi.

जीवन में मरना भला, जो मरि जानै कोय |

मरना पहिले जो मरै, अजय अमर सो होय |

Hayotda o‘lish yaxshidir, agar kimdir o‘lish sirini tushunsa.

O‘limdan oldin o‘la olgan kishi — mag‘lubiyyatsiz va abadiydir.

सॉनेट (Sonet). She’riyatda odatda 14 misradan iborat, maxsus vazn, qofiya tizimi va kompozitsion qurilmaga ega bo‘ladi. Sonet odatda lirik janr hisoblanadi va tuyg‘u, falsafa, muhabbat, vaqt, o‘lim kabi mavzularni chuqur va ixcham tarzda ifodalashni maqsad qiladigan qat’iy tuzilgan she’riy janr hisoblanadi. Sonet ilk bor XII asrda Italiyada, aniqrog‘i Sitsiliya mакtabida paydo bo‘lgan, Petrarka tomonidan yuksak badiiy darajaga ko‘tarilgan va keyinchalik Shekspir tomonidan ingliz adabiyotiga moslashtirilgan. Bugungi kunda sonet

jahon adabiyotining eng qadrlanadigan hamda klassik she’riy janrlaridan biri hisoblanadi. Hindiy adabiyotda sonet (সান্তেট) janri to‘g‘ridan-to‘g‘ri an’anaviy shaklda rivojlanmagan bo‘lsa-da, XX asrda bu Yevropa poetikasidan kirib kelgan she’riy shakl sifatida ayrim hind yozuvchilari va shoirlari tomonidan eksperimental tarzda sinab ko‘rilgan. Harivansh Rai Bachchan, Makhanlal Chaturvedi, Agey (S.H. Vatsyayan), Dinkar, Nirala, Sumitranandan Pant kabi hind shoirlari sonetga o‘xshash she’riy asarlar yaratishgan.

GLOSSARY

avangardizm — XX asr san‘ati va adabiyotdagi so‘l oqimlarni ifodalaydi. Germaniyadagi ekspressionizm, Chexoslovakiyadagi avangardlarning turli ko‘rinishidir va burjua madaniyatiga qarshi chiqadilar. Hozirgi kunda yangi avangardizm yuzaga chiqdi.

Allegoriya — so‘zlarning ko‘chma ma‘noda ishlatalishidir.

antologiya — bir nechta shoir va yozuvchilarning tanlangan asarlari to‘plami.

bilingvizm — ikki tillik

barot — kelinni olib ketish marosimi

vedalar — qadimgi Hindiston adabiq yodgorliklari

Gyanpitx — adabiyot bo‘yicha Hindistonda Nobel mukofoti hisoblanadi

dxvani natak — ovozli pesa.

kxudi — urdu adabiyotiga birinchi marta M.Iqbol tomonidan kiritilgan atama, “o‘zlik” ma‘nosini anglatadi..

Intellektual janrlar — so‘nggi yillarda adabiyotshunoslikda paydo bo‘lgan atamadir. Unda muallifning e‘tibori nafaqat hayot, insoniy xarakterlar, balki g‘oyaviy, nazariy nizolarga qaratilgan (roman-konsepsiya, drama-konsepsiya).

Kundalik — xotira daftari — badiiy asar shakllaridan bo‘lib, u yozuvchining o‘zi qatnashgan hayotiy voqeа-hodisalarni, fikr-mulohazalari va ichki kechinmalarni aks ettiradi.

lakonizm — asar tilining lo‘nda, aniqligi.

lirika — “lirika” atamasi III-II asrlarda ellinstik madaniyat zaminida paydo bo‘lgan. “Lira” — qadimgi Gresiyada musiqali asbobning nomi.

mistsitsizm — tasavvuf, ilohiyotga, g‘ayritabiiy kuchlarga ishonish

nayi kavita — “yangi she‘riyat” oqimi

nandi – hind adabiyotlarida an‘anaviy so‘zboshi

naturalizm – realizmning bir oqimi, Yevropada vujudga kelgan, borliqni bor mayda-chuyda, ikir-chikirlarigacha ochiq ko‘rsatish.

nasriy drama – muallif va qahramonlar nutqi nasrda yozilgan drama

Neoromantizm — yangi romantizm

Neorealizm — yangi realizm

Naya samiksha — yangi tanqidchilik.

novella – italyan tilidan novelette – “qisqa hikoya”, g‘arb adabiyotshunoslarining fikricha, novellaning hajmi 7500 ta so‘zdan kam bo‘lishi lozim.

ocherk – o‘z hajmi jihatidan hikoyaga yaqin turgan, epik turga mansub badiiy publitsistik janrlardan biri.

prayogvad – izlanish oqimi

pragativad – taraqqiyparvarlik ham harakat ham yo‘nalish.

praxasana – sanskrit adabiyotidagi bir pardali pesaning bir turi.

Pritchā — ma‘naviy yoki diniy nasihatni o‘z ichiga olgan kinoya ko‘rinishidagi kichik hikoya bo‘lib, shakliga ko‘ra masalga o‘xshaydi.

psixoanaliz – qahramonlarning ichki dunyosini o‘rganish hamda e‘tiborni ko‘proq biologik, fiziologik va seksual fazilatlariga qaratish.

puranalar – qadimgi hindlarning afsonalari, qissalari.

radionatak – radioda ovoz va musiqa orqali ijro etiladigan drama

Rekxachitra — hikoya, ocherk va nasrchilikning unga o‘xshash boshqa janrlari qatoriga kiritilgan bo‘lib, unda voqelikka atrofdan solingan nazar aks ettiriladi.

ritorika – notiqlik san‘ati

ritikal davri – hind zaminida XVIII asrda rivoj topgan adabiyot

sanskrit – qadimgi Hindiston yodgorliklari tili

sati – qadimgi hinduizm diniga ko‘ra marxum erining jasadi bilan birga ayolini ham yoqish odati.

cvarali – milliy ozodlik harakati.

tamil adabiyoti – Janubiy Hindiston adabiyotlaridan biri.

tavaif – maxsus uylarda tarbiyalangan raqqa

traktat – muayyan yozuvchining asarlar majmui

TYoU – Taraqqiyparvar yozuvchilar uyushmasi. 1936-1954 yillarda faoliyat olib borgan.

trazm oqimi – hind adabiyotidagi an‘anachilik oqimi.

uslub – til vositalaridan foydalanishning ma‘lum bir yozuvchi, asar, janr uchun xos bo‘lgan usullar majmui.

hikoya – kichik bir epik janr bo‘lib, hayot hodisalari ixcham ifoda etiladi va birgina voqeа asogsiga quriladi. Bu janrning zamonaviy namunalari bizda XX asr boshlarida paydo bo‘ldi.

harijan – eng past kasta

chxayavad – hindiy she‘riyatida romantizmning ifodasi, umumiy xususiyatlari romantizmga tegishli bo‘lsa-da, uning o‘ziga xos, farqli jihatlari ham bor.

TYoU – Taraqqiyparvar yozuvchilar uyushmasi. 1936-1954 yillarda faoliyat olib borgan.

epistolyar janr – xat shaklida yozilgan asar.

ekanki – bir pardali drama shakli.

eksperimentalizm – izlanish oqimi

Ekspozitiv — ta‘rif, yoritib berish uslubi, muallif sub‘ektiv, oshkora hikoya qiluvchi sifatida ishtirok etadi.

shravya natak – eshitish uchun yaratilgan pesa.

qissa – Yaqin va O‘rtta Sharqda keng tarqalgan folklor va yozma adabiyot asarlari

